

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TABIATSHUNOSLIK – GEOGRAFIYA FAKULTETI

“GEOGRAFIYA” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Yevropa mamlakatlarini ta‘lim texnologiyalari
asosida o‘rganish**

Kafedra mudiri: dots. Janqobilov I.X.

Ilmiy rahbar: g.f.n. k. o‘q. Usmanova R.

Bajaruvchi: IV kurs Janiqulova Z.

Qarshi -2013

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHGA TOPSHIRIQ

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri: _____

2012- yil “ ” _____

Talaba *Janiqulova Zulayho*

Ta'lim yo'nalishi: *-Geografiya*

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: *Yevropa mamlakatlarini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish*

Bitiruv malakaviy ish oldi amaliyoti o'tilgan joy: *Qashqadaryo viloyati malaka oshirish instituti, Qarshi shahar 34 – maktab, 19- maktab va geografiya kafedrası*

Bitiruv malakaviy ish rahbari: *g.f.n. Usmanova R.*

I S H R E J A S I

Bitiruv malakaviy ish bo'limi	Bajarish muddati
BMIni bajarishning sh rejasini tuzish, mavzuga doir adabiyotlar kartotekasini artibga solish	2011-yil noyabr-dekabr
I. BOB. Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	
I.1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida tushuncha	2013-yil yanvar
I.2. Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2013- yil fevral
I.3. Geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullarda foydalanish	2013- yil fevral
II. BOB. Yevropa mamlakatlarini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish	
1.1. 9- sinf geografiya ta'limi dasturi	2013- yil mart
1.2. Yevropa mamlakatlariga umumiy geografik tavsif	2013- yil aprel
1.3.Yevropa mamlakatlari “Transport geografiyasi” mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish	2013- yil aprel
1.4. “Germaniya” mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishga doir	2013- yil mart
“Kirish” va “Xulosa” qismlarni tayyorlash, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish, ilovalarni tayyorlash, BMI ni rasmiylashtirish va himoyaga tayyorlash.....	2013- yil may

K I R I S H

Ta'limni – tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.¹

I.A. KARIMOV

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Bugungi kunda yosh avlodni zamon ruhi va talabi hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga to'liq javob beradigan darajada o'qitish va tarbiyalash “Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”ning asosiy talabi hisoblanadi. Belgilangan ushbu vazifalar ta'lim va tarbiya tizimidagi barcha bo'g'inlarning o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lidan rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir. Bu mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib, hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari belgilovchi hujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi. 2012 yil 16 – 17 fevral kunlari “

¹ I.A. Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch”. Toshkent “Ma'naviyat”-2008 62-bet.

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o’tkazilishi davlatimiz tomonidan yosh avlodni tarbiyalashga berilayotgan e’tiborning katta ekanligidan dalolatdir.

Zamonaviy geografiyani o’qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o’qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog’liq.

Prezident I.A. Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo’ljallangan eng muhim ustivor yo’nalishlarga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidagi ma’ruzasida quyidagicha bayon qilganlar. “Hisobot yilida ta’lim sohasini rivojlantirish va isloh etish masalasi doimiy ravishda e’tiborimiz markazida bo’ldi. ...oily ta’limgacha bo’lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo’lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi”² deb ta’kidladi.

Shu xususda geografiya keng qamrovli fan bo’lib, o’quvchilarga bilim berganda tabiat va jamiyat orasidagi aloqadorlik ularning ongiga singdirib boriladi. Ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanish-o’quvchilarni o’zini-o’zi boshqarishga, mavzu to’g’risidagi axborotlarni kengroq uzatish va qabul qilishga, dars mobaynida monitoring olib borishga, o’quvchilarni vatanparvarlik g’oyalari bilan tarbiyalash va yana bir qancha insoniy fazilatlar bilan ta’lim – tarbiya berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, geografiya mashg’ulotlari sinfdan tashqari ishlarda o’lka haqidagi bilimlarni mustahkamlash bilan shugullanish katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning o’rganilganlik darajasi. Mavzuni o’rganishda an’naviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati haqida tadqiqot ishi olib borgan olimlarning (Eshmuhammedov R., Abduqodirov A., Majidova N., Majidova A., Qorayev S., Musayev P.,Qurbonniyozov R.) ilmiy

² Karimov I.A. “ Bosh maqsadimiz – keng ko’lamli islohotlar va modernizatsiya yo’lini qat’iyat bilan davom ettirish” O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2012 – yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2013 –yilga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustivor vazifalariga bag’ishlangan yig’ilishidagi ma’ruzasi. Ma’rifat gazetasi 2013 yil, 19-yanvar № 6.

ish natijalarida va Qashqadaryo viloyatini geografiyasini o'rgangan Qarshi Davlat universiteti Geografiya kafedrası professor-o'qituvchilari Hayitov A., Mamatov A., Abdullayev S. va boshqalarning ilmiy ishlaridan hamda geografiya o'qitish bo'yicha malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti tadqiqotchilaridan Jumayeva R., Murodova N. tomonidan o'qitishning optimal usullari tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Geografiya darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va pedagogik texnologiyalarni qo'llash, mashg'ulot samaradorligi uchun ko'rgazmali materiallardan foydalanish, savol-javoblar o'tkazish, mavzu uchun metodik ochqich vazifasini bajaruvchi elementlarni topa olish bilan xarakterlanadi. Buning uchun Yevropa mamlakatlarini o'rganishda qiyoslash asosida mahalliy materiallardan foydalangan holda mashg'ulot otkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot obyekti. Jahon mamlakatlarini o'rganishda mahalliy materiallardan ham foydalanib, o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. Geografiya darslarida jahon mamlakatlarini O'zbekistonning materiallaridan foydalanib taqqoslashda o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakllari, usul va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;
- Innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida;
- Geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish;
- 9- sinf geografiya ta'limi dasturi;
- Yevropa mamlakatlariga umumiy geografik tavsif;
- "Germaniya" mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishga doir;

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot usullari. Olib borilayotgan ilmiy ishda Geografiya darslarida innovatsion talimning o'рни, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish asosida tizimli tahlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari. Olib borilayotgan ilmiy ishda geografiya va pedagogik ta'lim texnologiyalarining fundamental adabiyotlari va hukumatimiz tomonidan joriy etilgan farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari, Prezident I.A. Karimovning ta'lim haqidagi ma'ruzalari va asarlari BMI ning metodologik asosini tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Geografiya ta'limida o'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan o'zi va o'rganishi uchun qulay bo'lgan usul va uslublarni, o'qitish shakllarini, vaziyatlarini izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o'quv jarayoni samaradorligini oshirish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishishni ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Geografiya keng qamrovli fan bo'lib, o'quvchilarga bilim berganda tabiat va jamiyat orasidagi aloqadorlik ularning ongiga singdirib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish-o'quvchilarni o'zini-o'zi boshqarishga, mavzu to'g'risidagi axborotlarni kengroq uzatish va qabul qilishga, dars mobaynida monitoring olib borishga, o'quvchilarni vatanparvarlik g'oyalari bilan tarbiyalash va yana bir qancha insoniy fazilatlar bilan ta'lim-tarbiya berishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va jadvallardan iborat.

I. BOB. GEOGRAFIYADA TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”
tasodifan paydo bo‘lgani yo‘q-bu aynan
shu xalqimizning qon-qoniga singigan
ma’rifat qonuniyatining davomi.¹*

I.A. KARIMOV

“Bir narsa ravshan-ishchilar va injener – texnik kadrlar tayyorlashning tarkib topgan sistemasini tubdan yangilash talab qilinadi...

Moddiy bazani mustahkamlash, kadrlar masalasi, ma’naviy ehtiyojlar-bularning hammasi diqqat-e’tiborimizda bo‘lishi kerak. bu gap tarixiy va madaniy meros masalalariga, asossiz tarzda unutib yuborilgan xalq an’analarini va udumlarini tiklashga ham to‘la taalluqlidir”.²

1.1. Innovatsion ta’lim texnologiyalari haqida

Geografik bilimlarga oid ilk tasavvurlar aynan bola atrofidagi damni his etishdan boshlanadi. Buning metodik jihatlarini yaratish O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi tasarrufidagi tegishli o‘quv-metodik bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilishi lozim.

Maktabda matematika, fizika, ona tili, xorijiy tillar kabi o‘quv kurslarining o‘qitilish qoidasidan kelib chiqqan tarzda geografik ta’lim, uning yo‘nalishlari va obektlari nomlari bilan emas, bolalarning yoshi jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga oluvchi sinflar bilan farq qiladi, xolos. Albatta, bunda bilim olib oddiydan -murakkabga tomon iyerarxik pog‘onalash, ya’ni tizimlash asosida tashkil etiladi.

Uzluksiz geografik ta’lim milliy ta’lim tizimining barcha bosqichlarini o‘zida qamrab oluvchi va iyerarxik pog‘ona joylashtiruvchi bilim berishni oddiydan murakkab tomonga olib boruvchi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatishi mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar ko‘ziga

^{1,2} I.A. Karimov “O‘qituvchilar gazetasi”ning 1989 yil 25 noyabr sonida chop etilgan nuqtdan.

yaqqol tashlanayotgan ularni “Atrof-olamga sayohat” ruknida bolalarga ochiq havoda tanishtiruv sohatlarini o‘tkazish va rasmlar chizdirish tavsiya etiladi. Barchada esa bolalarga ochiq havoda tanishtiruv sohatlarini o‘tkazish va rasmlar chizdirish tavsiya etiladi. Bog‘chada esa bolalarga atrof olam haqidagi she’rlarni yodlatish va turli o‘yinlarni o‘ynatish lozim. “Ertaliklarni” nafaqat milliy bayramlarga, balki 22-mart xalqaro suv kuni, 22-aprel xalqaro Yer planetasi kuni, 5-iyun butun jahon atrof muhitni muhofaza qilish kuni, 22-sentabr-Xalqaro turizm kuni, 6-oktabr-Yashash hududlarini muhofaza qilish kuniga” bag‘ishlangan o‘tkazish mumkin. Umumiy o‘rta maktab o‘z nomi bilan umumiy, shuning uchun ham unda o‘qitilayotgan “Geografiya” mantiqan umumiy bo‘lmog‘i lozim. Chunki yuqorida ko‘rindiki, u nafaqat janubiy yoki iqtisodiy geografiyadan balki o‘nlab boshqa fanlardan tarkib topgan geografik fanlar tizimidan iborat. U o‘z aksini uzluksiz ta’lim bosqichlarida topishi lozim.

Tabiiy yo‘nalishdagi ixtisoslashgan maktablarda geografik ta’lim 1-sinf dan umumta’lim maktablarida esa 5-sinf dan boshlangani ma’qul. Maktabda umumlash tirilgan geografiya hozirgidek tabiiy va iqtisodiy geografik bilimlarni berishga asoslanmaydi.

Yakuniy maktab geografiyasi “O‘zbekiston geografiyasi” o‘quv kursi bilan yakunlanadi. Chunki yoshlarning barchasida milliy g‘oya va g‘ururini shakllantirish maqsadida “O‘zbekiston tarixi”, o‘quv kursi bilan bir qatorda “O‘zbekiston geografiyasi”ni o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Bu uning davlat va jamiyat uchun naqadar zarurligini ko‘rsatadi va uning umum majburiy xususiyatlarini namoyon etadi hamda yagona maqsad sari intiltiradi.

O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limga geografiya faqatgina “Amaliy geografiya” tariqasida emas, balki deffirensiyalashgan holda ixtisoslashgan tarzda kirib kelishi lozim.

Akademik litseylarning nogeografik ta’lim muassasalarida, oliy ta’lim talablaridan kelib chiqqan tarzda, aniq fanlar yo‘nalishida, “Umumiy geografiya”, qolganlarida esa huddi shu nomdagi geografik fanlarni o‘zlashtirish kerak.

Agarda respublikamizda kelgusida maxsus geografik akademik litseylar ochilsa uning 3 yillik ta'lim bosqichining birinchi kunida "geografiya asoslari", so'ngra o'sha zamonga mos hamda kasbga yo'naltiruvchi geografik, bilim berish maqsadga muvofiqdir.

O'rta darajadagi kasbni egallash uchun kollejlarga o'qishga kirgan talabalarga geografik bilim ularning jonlangan yo'nalishlariga mos ravishda o'tilishi mantiqan to'g'ri deb hisoblaymiz. Masalan: pedagogika kollejlarida o'quvchiga "geografiya o'qitish metodikasi" o'quv kursini o'tish ham qarz ham farzdir. Yangi iqtisodiyot va servis kollejlarida "Iqtisodiy geografiya", "Rekreatsioon geografiya" yoki "Turizm geografiyasi"ni o'tish foydadan holi emas. Bu bilan biz o'quvchilarga mehnat faoliyatlarida kerakli bo'lgan geografik bilim va ko'nikma berayapmiz. Ularni ishga joylashishlarini osonlashtirmoqdamiz.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talaba (o'quvchilar)ni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilib kelingan edi. Bunday usul talaba (o'quvchilar) da mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talaba (o'quvchilar) egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba (o'quvchilar) asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog – olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida Nega o'qitamiz? Nimaga o'qitamiz? Qanday o'qitamiz? Savollariga javob izlash bilan bir qatorda qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkin? – degan savoliga ham javob qidirdilar.

Bu esa, olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab - chiqarishga oid aniq, kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urunib ko'rish mumkin, degan fikrga olib keldi.

Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalaishini yuzaga keltirdi. Bugungi kunda ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o'quv – tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondoshuvini keng joriy etish imkoniyatlarini beradi.

Uchunchidan, pedagogik texnologiya o'qituvchini ta'lim – tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli ularning qo'llanilishi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablarini amalgam oshirishni ta'minlaydi.

O'quv – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talaba (o'quvchilar) dan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv – tarbiya jarayonida ham qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba (o'quvchilar)ni kim o'qitayotgan va kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga

intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga nuqtai – nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innavatsion jarayonlar ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomondan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv – tarbiyaviy jarayonlarida zamonaviy o'qitish uslublari interfaol uslublar, innavatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba (o'quvchi) larni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innavatsiya (inglizcha - innavatsion) yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innavatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda talaba (o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanadi.

Interfaol (“Inter” – bu o'zaro, “ast” – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda , o'qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarini tushuntirish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rni qisman talaba (o'quvchi)larning faoliyatini dars maqsadiga erishishiga yo'naltirishiga olib keladi.

Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talaba (o'quvchi) larning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- talaba (o'quvchi)ning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi;
- talaba (o'quvchi)larning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini doimiyligini ta'minlanishi;
- talaba (o'quvchi)larning fanga bo'lgan qiziqishlarini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirilishi;
- pedagog va talaba (o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotganlar fikricha pedagogik texnologiya – faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proyektor va boshqa texnik vositalar. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng **asosiy negizi** - talaba (o'quvchi)ning belgilangan maqsadidan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi talaba (o'quvchi) o'rtasidagi hamkorlik faoliyatini tashkil etilsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talaba (o'quvchi)lar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhlarga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu – o'qitish jarayoning asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi **pedagogik texnologiya – bu aniq ketma – ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba (o'quvchi)larning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.**

Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish talaba (o'quvchi)larning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl vositasiga, yangi texnologiyaga bog'liq.

Talaba (o'quvchi)larning maqsadi natijasiga erishishida qanday texnologiyalarni tanlashlari ular ixtiyorlarida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bunda talaba (o'quvchi)larning bilim saviyasi, guruh, xarakteri, sharoitiga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film (yoki tarqatma materiallar, chizma va plakatlari, axborot texnologiyasi, karta, atlas) kerak bo'ladi. Bularning hammasi talaba (o'quvchi)larga bog'liq.

Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini joy va sharoitini, eng asosiysi talaba (o'quvchi)lar va o'qituvchilarning imkoniyati va ehtiyoji va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etilishini hisobga olishlari kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (o'quvchi)larni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

I.2. Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

“O'quv jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni joriy etish bolalarimizni komil inson qilib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga ‘tiborimizni yanada oshirish qisqacha aytganda ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi kerak”.¹³

I.A. KARIMOV

Ta'lim tizimidagi boshqa bo'g'inlarda bo'lgani kabi o'rta –maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarida o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berish jarayonning asosiy shakli nazariy va amaliy mashg'ulotlardir. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari o'tkaziladigan barcha ta'limiy – tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari jarayonida olgan bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham akademik litseylar va kasb – hunar kollejlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning sifat samaradorligini oshirish, o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash nihoyatda muhimdir.

¹ I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “O'zbekiston Konstitusiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevor” nomli ma'ruzasi// Xalq so'zi 2010 yil 30 yanvar № 21.

Barkamol avlodni shakllantirish uchun axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o'quv yurtlarida o'quv laboratoriyalari bazasini takomillashtirish, o'qituvchi – murabbiylar mehnat faoliyatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy informatsion va kommunikatsiya texnologiyalar, raqamli va kengtarmoqli telekommunikatsiya aloqalari va Internet tizimini har bir oila hayotiga kirib kelishini ta'minlashga ko'maklashish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va iqtidorli yoshlarni ilmiy ishlarga jalb etish uchun sharoitlar yaratish, ta'lim – tarbiya jarayonini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarish yo'llarini zamon talablaridan kelib chiqqan holda shakllantirish hozirgi kunning dolzarb muammolardan hisoblanadi. Hozirgi davrda ekologik muammolar keskin tus olayotgan bir davrda transchegaraviy suv muammolari, Orol muammosi, chuchuk suv muammosi kabi masalalarni hal qilishda geografiyadan beriladigan bilim va ko'nikmalar talabalar ilmiy dunyoqarashini kengayishiga va undan amaliyotda foydalanishda samara beradi. Shuningdek ochiq darslar, seminar treninglar, amaliy mashg'ulotlar orqali ham talabalarga suv haqidagi ilm yetkazib beriladi. Shu nuqtai nazardan kelajakda atrof-muhitdan foydalanishda jamiyatga foyda keltiruvchi inson bo'lishida yordam beradi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofidaqilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir.

Shu bois mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab sifatli kadrlar tayyorlashga qodir milliy asosga qurilgan va jahondagi ilg'or davlatlar ta'limi taraqqiyoti tajribalariga tayanadigan kadrlar tayyorlash tizimini yaratish asosiy vazifalaridan biriga aylandi. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" milliy ta'lim taraqqiyoti va milliy kadrlar tayyorlash tizimi istiqbollari

belgilovchi hujjat sifatida bu sohadagi ishlarni rivojlantirishda yana bir tarixiy davr boshlanishiga zamin yaratdi.

Ta'lim sifati va usuliga qarab bilim hosil bo'ladi. Bu o'qituvchining mahoratinigina emas, balki tinglovchining istak-xohishi, qobiliyati va bilim darajasini ham belgilaydi. Ta'lim uzoq davom etadigan jarayondir. Bilim esa ta'limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo'lgan hodisadir. Bilim xususiylikka ega bo'lsa, ta'lim umumiylikka egadir. Ta'lim barcha uchun bir xilda davom etadigan jarayon. Bilim obektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in'ikosi natijasida inson miyasidagi mushohadalar va tasavvurlar natijasida hosil bo'ladigan tushunchalar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limdagi sifat uni berishda ishtirok etadigan kishilar sifati bilan belgilansa, bilim individuallikka ega bo'ladi. Ta'limni amalga oshiradigan yoki dars beradigan kishilarning saviyasi turlicha bo'lishi mumkin. Lekin guruhdagi talabalarga beriladigan ta'lim bir xildir. O'qituvchi bilim emas, balki ta'lim beradi. Talaba esa ana shu ta'lim jarayonida bilimga ega bo'ladi. Buning uchun u mustaqil o'qiydi, tayyorlanadi, mushohada qiladi, tasavvurlarga ega bo'ladi, eshitganlari va o'qitganlarini sintez qiladi. Natijada bilimga ega bo'ladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

Aytilganlardan kelib chiqqan holda, ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishdagi asosiy konseptual yondoshuvlarni keltiramiz:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining

shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o‘quv jarayoni ishtirokchilarning psixologik birligi va o‘zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi subektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash.

Keltirilgan konseptual yo‘riqlarga asoslangan holda, «Kompyuter modellashtirish» kursining maqsadi, tuzilmasi, o‘quv axborotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, ma’lum sharoit va o‘quv rejasida o‘rnatilgan vaqt oralig‘ida o‘qitishni, kommunikatsiyani, axborotni va ularni birgalikdagi boshqarishni kafolatlaydigan usullari va vositalari tanlovi amalga oshirildi.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar va loyihalar usullari, amaliy ishlash usuli.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari o‘qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning Uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning qabul qilinishi bilan Uzluksiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Uzluksiz ta’lim chuqur, har taraflama asosan ta’lim-tarbiya berish, mutaxassis kadrlar tayyorlashning turli shakl, usul, vosita, uslub yo‘nalishlarining mukammal uyg‘unligidan iboratdir.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talabning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, Uzlaksiz ta'lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko'zda tutadi. Buning uchun, avvalo ta'lim tizimining barcha shakldagi muassasalarida ta'lim jarayonini ilg'or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyot bilan amalda ta'minlash lozim. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va ilg'or texnologik yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda. Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri - malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofida mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. «Geografiya»ning maqsadi geografik qobig'ining tuzilishi, unda moddalarning o'zaro aloqasi va ta'siri, yerning o'ziga xos xususiyatlari hamda gidrosfera va uning tashkil etuvchilari bo'lgan okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, yer osti suvlari ularning o'ziga xos xususiyatlarini hamda har tashkil etuvchining atrof tabiiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida ro'y beradigan hodisalar qonuniyatlarini talabalarga o'rgatishdan iborat. Fanni o'rganishdan quyidagi asosiy vazifalar kelib chiqadi:

- geografiya to'grisida talabalarga tushuncha berish

-geografik muhitning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan tabiiy suvlar,okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, muzliklar, yer osti suvlari haqida bilim berish

- suv zaxiralaridan samarali foydalanish, ularni tejash va sifat jixatidan muhofaza kilish yullari haqida bilim berish.

- tabiiy va antropogen omillar ta'sirida ularning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish

- amalga oshirilishi muljallangan suv xo'jaligi tadbirlarini (melioratsiya, irrigatsiya, gidroenergetika, suv zaxiralarini xududlar buyicha qayta taqsimlash) ekologik nuqtai nazaridan asoslashga o'rgatish

Geografiya Yer to'g'risidagi fanlar turkumiga kiradi. Geografiya yunoncha so'z bo'lib «geo» -yer va «grafiya» -yozaman, tasvirlayman yoki fan degan ma'noni beradi. Umumiy qilib aytganda geografiya Yer haqidagi fandır. Geografiya faning vazifasi umuman butun yerdagi geografik qobiqni qonuniyatlari asosiy xususiyatlarini o'rganishdir. Landshaftlarni o'rganish geografiyaning vazifalaridan biridir. Butun geografik qobiq ham, uning regionlari va landshaftlari ham bilish maqsadidagina emas, balki asosan tabiiy resurslardan amaliy foydalanish maqsadida o'rganiladi. Demak,geografiya atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferaningi xususiyatlarini hamda ularda sodir bo'ladigan xodisa va jarayonlarning boshqa hodisalar bilan o'zaro aloqasini o'rganuvchi fandır.

Bu geografik qobiq qonuniyatlarini o'rganuvchi Geografiya fanining o'rni va roli benihoya kattadir. Yosh avlodni yangicha ta'lim standartlari asosida, jahon talablariga javob beruvchi mutaxassislar qilib tarbiyalash ishi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar uchun yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, risolalar tayyorlashning ham yangicha uslublarini talab etmoqda. Ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga holis baho berish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, transchegaraviy suv muammolari, Orol dengizi muammolarini sir-asrorlariga befarq bo'lmaslik, o'z bilim va imkoniyatlarini o'stirishning elementar

vositalaridan bohabar bo'lishga yordam beradi. Chunki o'quvchi (talaba)lar bilim olish jarayonida o'z qobiliyati, iqtidori, layoqati va tafakkurini suv ilmining o'ziga xos xususiyatlarini bilib, undan tabiatdan to'g'ri foydalanishga yo'naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o'ziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi. Shunday ekan, hozirgi kunda " Geografiya" fani sir-asrorlarini har bir Yer ilmi bo'yicha tahsil oladigan o'quvchi (talaba) uchun zarur bo'lgan jihatlarini, ya'ni Geografiya boshqa fanlar bilan integrasiyalashuvi, hamkorligi, bog'liqligini; Geografiyaning zamonaviy yo'nalishlari, tarmoqlarini tadqiqot qilish usullarini va geografik obektlarni xususiyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars uslubiyotini yaratish, bilish, o'rganish muhimdir.

O'quvchi (talaba)larga mo'ljallangan "Geografiya" kursining asosiy **maqsadi** – geografik qobiq va unda kechadigan jarayonlar qonuniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Hozirgi kunda Geografiya keng qamrovli fan bo'lib, atmosfera, gidrosfera, litosfera va biosferaning xususiyatlarini hamda ularda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarning boshqa hodisalar bilan o'zaro aloqasini hamda har bir tashkil etuvchining o'zaro va atrof tabiiy muhit bilan ta'sirlashuvi natijasida ro'y beradigan hodisalar qonuniyatlarini o'rganadi. O'quvchi (talaba)larda Geografiya tushunchalarini shakllantirishdan iboratdir.

"Geografiya" kursi bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning maqsadi – mustaqil fikrlashga o'rgatish, fikrlashga oid ko'nikmalarni rivojlantirish. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchi (talaba) geografik qobiq haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lishi uchun atmosfera, gidrosfera, litosfera va uning qismlari hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganishi lozim. Tabiatda suvning aylanishi, unda kechadigan hodisalar hamda Dunyo suv muvozanatini o'rganiladi.

Geografiyadan olingan bilimlarni amaliyotga tadbqiq etish soha va yo'nalishlarini aniq tasavvur qilishga ko'maklashadi.

"Geografiya" fani bo'yicha talabalarning bilimi, o'quvi va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar:

a) tassavvurga ega bo'lishlari kerak:

- fanga tegishli bo‘lgan nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘rganish, aniq tassavvurga ega bo‘lishlari;
- har bir elementga e’tibor bergan holda, fan sirlarini to‘liq o‘zlashtirib olishlari lozim.
- Geografiyaning hozirgi sharoitdagi o‘rni va ahamiyatini bilish;
- Suvdan foydalanishni tashkil etish va boshqarishdagi geografik qonuniyatlar, suvdan oqilona foydalanishni o‘rganish;

b) bilish kerak:

- o‘quvchi (talaba)lar kursni o‘zlashtirish jarayonida fanning mazmuni, maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, fanning nazariy asoslarini;
- fanga tegishli bo‘lgan asosiy terminlarning izohini, yangiliklar, qonun–qoidalarni o‘zlashtirishlari zarur;
- tabiatdan oqilona foydalanishning sir-asrorlarini bilish zarur;
- o‘z iqtidori va qobiliyatlarini o‘stirish texnologiyalarni o‘zlashtirish;
- bajarish lozim:
- o‘quvchilar (talaba)lar fanning mazmunidan kelib chiqqan holda har bir mavzuga tegishli bo‘lgan mustaqil ravishda kerakli adabiyotlardan foydalanishlari, ma’ruzalar, referatlar tayyorlashlari;
- kunlik seminarlarda kerakli ma’lumotlarni yig‘ishlari, noan’anviy usullarni takomillashtirilgan variantlarini ishlab chiqishda ishtirok etishlari.
- o‘z ustida mustaqil va ijodiy ishlash ko‘nikmalari;
- o‘zgalar mehnati va ijodiy faoliyatini xolis va obektiv baholash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati jahon andozalariga mos keladigan kadrlar tayyorlash masalalariga e’tiborni qaratib kelmoqda. Dars jarayonini boshqarish va tashkillashtirishda professor-o‘qituvchining bilimi, tajribasi, ko‘nikmasi, ilmiy-pedagogik salohiyati, mahorati, qobiliyati asosiy omil hisoblanadi. Shunga ko‘ra, jumladan ma’ruzani oddiydan murakkabga qarab

rivojlantirib qo'llaniladigan o'quv qo'llanmalar va vositalar tayyorlanadi. O'quv xonasi dars uchun tayyorlab qo'yiladi.

O'qituvchi ma'ruza qila turib quyidagilarga e'tibor qaratadi:

- O'quvchilar (talabalar)ni savol-javobga undash orqali guruhda muhokama muhitini yaratadi, ijobiy javoblarni shakllantiradi;
- vaqtincha erkin fikr almashishga ruxsat beradi;
- kundalik hayotdan ibratli misollar keltiradi;
- o'quvchilar (talabalar)ni savol berishga undaydi;
- ilgari o'rganilgan hodisa va vaziyatlarni yangilari bilan taqqoslashni amalga oshiradi;
- fan doirasida turli ma'lumotlarni jonli, qiziqarli bayon qiladi.

Dars jarayonida o'quvchilar (talaba)ning tanqidiy (tahliliy) fikrini shakllantirishda, uchta bosqichdan foydalaniladi:

1. Yo'llanma berish;
2. Ahamiyatini oshirish;
3. Fikrlash.

O'quvchilar (talabalar)ning tanqidiy (taxliliy) fikrini rivojlantirishda interaktiv uslublarning muhim o'rnini bor, bular hamkorlik subektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga, kashf etishga ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarda ifodalanadi.

Darsni boshlash jarayonida o'quvchilar (talabalar)da ko'tarinki kayfiyat, yuksak ehtiros, ijodiy ruhlanish kuzatilsa dars jarayonining samaradorligi yuqori bo'ladi. Bunda o'qituvchining faoliyati aniq reja asosida, oldindan tayyorlangan holda bo'lishi zarur. Demak, o'qituvchi tomonidan dars davlat ta'lim standartlari asosida olib boriladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, ya'ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdir. Ushbu murakkab muammolarni yechimini topib ularni amalda keng qo'llash oliy ta'lim tizimi xodimlari oldiga juda katta vazifalar belgilaydi. Bunda aniq vazifalar sifatida

bevosita o'quv jarayonini yaxshilash, o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalaridan keng foydalanish va shu asosda masofadan o'qitishni keng joriy qilishdan iboratdir.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, ijodkorlikka undash, erkin muloqot yuritishga, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ilmiy izlanishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustivorligini ta'minlaydi.

**INTERFAOL USLUBLAR VA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR**

Tanishuv texnologiyasi

“Yelpig’ich” texnologiyasi

Charpalak texnologiyasi

Zinama-zina texnologiyasi

“Bahslashuv” texnologiyasi

Bumerang texnologiyasi

“Muloqat” texnologiyasi

“3x4” texnologiyasi

KBI (kuzatish, baxslashuv, ishontirish)

“Rezyume” texnologiyasi

“Munosabat” texnologiyasi

“Muammo” texnologiyasi

“Tashvitoq” guruhi texnologiyasi

“Labirint” texnologiyasi

“Tsenariy” texnologiyasi

FSMU texnologiyasi

“SAN” texnologiyasi

“Skarabey” texnologiyasi

INTERFAOL USLUBLAR

“Aqliy hujum”

Kungaboqat

Breynstorming

Breynrayting

Olmos

“Tarmoqlar” (Klaster) uslubi

Akvarium

Imen (Ariz)-Imen (Triz) uslubi

Taqdimot

Yumaloqlangan qor


“Keys-Stadi” uslubi

“Zigrak” usuli

Suhbat

6x6x6

Jadvallar



TEXNOLOGIK XARITA

Mavzu	Otalikni belshilash
Maqsad, vazifalar	Maqsad: Talabalarga otalikni belgilashning mohiyati, ahamiyati asoslari va tartibini tushuntirish. Vazifalar: Talaba (yoki o'quvchi)larda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'onish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. Mavzuga oil tarqatilgan materiallarni talaba (yoki o'quvchi)lar tomonidan yakka va guruh holatida O'zlashtiril olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada O'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash
O'quv jarayonining mazmuni	Bolaning nasl-nasabini belgilash tushunchasi, Otalikni belgilash zarurati qaysi hollarda vujudga kelishi. Otalikni belgilashning maqsadi va ahamiyati. Ota-onaning birgalikdagi arizasi asosida otalikni belgilash. Otaning arizasi asosida otalikni belgilash. Otalikni belgilash munosabati bilan tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftoriga O'zgartirishlar <u>kiritish</u>

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og‘zaki bayon qilish, “Bemerang” texnologiyasi. Shakl: Suhbat-munozara, amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash Vosita: Tarqatma materiallar, matnlar, ariza, ma’lumotnoma, xabarnoma blankalari. Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida Nazorat: Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish O‘z-o‘zini nazorat qilish. Baholash: Rag‘batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash
Kuzatiladigan natijalari	O‘qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha talaba (yoki o‘quvchilar tomonidan O‘zlashtirilishiga erishadi Talabalar faolligini oshiradi. Talabalarda darsga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir mashg‘ulot jarayonida barcha talabalarni baholaydi. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishadi. Talaba yoki o‘quvchi)lar tomonidan yozma axborotni mustaqil o‘rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazi, savol berish va savollarga javob berishga o‘rgatadi. Talaba (yoki o‘quvchi): Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi. Nutqi rivojlanadi hamda eslab qolish qobiliyati kuchayadi. O‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi. Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi: va baholay oladi.
Kelgusi rejalari (tahlil, O‘zgarishlar)	O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni O‘zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O‘z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog‘lash <u>Pedagogik mahoratni oshirish.</u> Talaba (yoki o‘qituvchi): Matn bilan mustaqil ishlashni o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo‘shimcha materiallar topadi, ularni o‘rganadi. O‘z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

I.3. Geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullarda foydalanish

.....biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etishi uchun qanot berishimiz kerak.¹

I.A. KARIMOV

Mustaqillikning dastlabki yillarida ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim tizimi uchun 1997 – 2009 yillarda yiliga yalpi ichki mahsulotning 9 – 10 % I va davlat byudjeti xarajatlarining 23 -29 % I sarflandi. Jumladan, 2005 yilning 23 – noyabrida “ 2006 – 2010 yillarda” kasb – hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini sifatli tayyorlash va mehnatidan foydalanish bo'yicha namunali hududiy dastur ishlab chiqildi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat standart o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajasini belgilab beradi. Davlat ta'lim standartiga sharoitda geografiya ta'limining maqsad va vazifalarini aniq va qat'iy qilib belgilangan: “ Geografiya insoniyat yashovchi sayyora, ya'ni Yer haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun ma'lumot berishga qaratilgan yagona o'quv fanidir. Geografiya ta'limi yer kurrasida ro'y beruvchi tabiiy va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni o'rgatadi. Geografiya ta'limi o'quvchilarda ..., Yer haqidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, ijtimoiy - iqtisodiy bilimlarni tarkib toptiradi, ... Yer kurrasining tabiiy manzarasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi turmush darajasini ko'tarish, atrof – muhit holatini yaxshilash vositalari va usullari haqida mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Binobarin, geografiya ta'limi o'quvchilarda umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi” deb alohida ta'kidlangan. Darhaqiqat, har taraflama bilimga ega bo'lgan, mantiqiy fikrlaydigan bo'lajak O'zbekiston fuqarolarini kamol toptirishdek o'ta ma'suliyatli ishda-O'zbekiston ta'lim tizimida geografiya faniga juda katta vazifa yuklatilgan. Geografiya o'quv fani sifatida “ Yer kurrasining tabiiy manzarasi” – materiklar, okeanlar, tog'lar, tekisliklarning bir- biriga nisbatan joylashuvi, “

¹ I.A. Karimov “Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tuzish to'g'risida” (“Ma'rifat” gazetasi. 1997 yil 15 mart).

Olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy madaniyatda ifodalanishini" – tabiiy resurslardan foydalanish usullari, tabiat boyliklarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rgatadi. O'rta maktab bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar – ayta (ko'rsata) olishi, aniqlay (o'lchay) olishlari tasirley olishi, tushuntira olishlari va bashorat qila olishlari- o'quvchilar egallashi shart bo'lgan ko'nikma va malakalar kabi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Bunday ko'p qirrali vazifani bajarish uchun geografiya o'qituvchisidan nafaqat o'zi o'qiyotgan fanlarning ilmiy – nazariy va uslubiy asoslarini, balki tabiiy va ijtimoiy -iqtisodiy fanlarning qator qonunlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi ham talab etiladi. Shu taqlid chuqur mazmunli masalalarning mohiyatini atroflicha bilishni talab etadigan mavzular 5–sinf “ Boshlang'ich tabiiy geografiya ”kursidagi “Litosfera (Yerning tosh qobig'i)” va 6- sinf “ Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” dagi “Geografik qobiqing vertikal tuzilishi” nomli ikkinchi mavzuning “Litosfera va Yer relyefi, yer po'sti, litosfera plitalari va Yerning geosinklinal mintaqalari” ni o'rganish mashg'ulotlaridir. Ushbu murakkab darslarni olib borish va Yer planetasining materik ko'tarilmalari va okean botiqlarining hozirgi qiyofasi haqida o'quvchida bilim va ko'rsatalish ko'nikmasini hosil qilish uchun tektonika, tarixiy geologiya, mineralogiya, paleontologiya, radiogeologiya va boshqa sohalardan yaxshi xabardor bolish zarur. Shu bilan birga dars o'tishning an'anaviy va qator interfaol usullaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

O'quv jarayonida geografiya talimini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida olib borishda interaktiv usullardan foydalanish muhim ro'l o'ynaydi. O'qitishning interaktiv usuli yordamida o'quv jarayoni to'g'ri tashkil etish kerakki, bunda sinfda talim oluvchilarning o'qish ,bilim olish jarayoniga to'la jalb etiladi. Ular o'zlari oylagan va bilgan barcha narsalar to'g'risida erkin fikr yuritish imkoniyatga ega bo'ladilar . Ya'ni mavzu materiyallarini idrok etish va o'zlashtirish jaroyonida o'quvchi va o'qtuvchilarning birgalikdagi faolyati natijasida jaroyani tashkil etiladi.Bu jaroyonda o'quvchilar o'zlarini alohida individual hissasini qo'shadi. O'quvchilar o'z fikrlari, bilimi faoliyati,dunyo

qarashi yangi mavzuga oid bo'lgan tasovurlari bilan o'rtoqlashadilar. Bu jarayon o'quvchilarning o'zaro ittifoqligi qo'llab –quvvatlash muhitida amalga oshadi. Interaktiv uslublar g'oyalarning ustunligi, yagonaligini vaqtincha inkor etadi. Talim jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashni o'rganadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan aytilgan al'ternativ fikrlarni taroziga solib ko'rish o'ylab xulosa chiqarish, bahs-munozarasida ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilib berishni o'rganadilar. Bundan tashqari, o'quvchilar tomonidan aytilgan al'ternativ fikrlarni taroziga solib ko'rish o'ylab xulosa chiqarish, bahs-munozarasida ishtirok etish, o'z fikrini bayon qilib berishni o'rganadilar.

Bu uslubni amalga oshirishda o'qituvchi, o'quvchilar darsni tashkil etishda yakka juft, holatda amalga oshiriladi.

O'qituvchi interaktiv uslubni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish kerak:

1. Sinf xonasi dars jarayoni uchun tayyor bo'lish kerak. Kerakli materiallar oldindan tayyorlanishi lozim.

2. Bu jarayonni amalga oshirishda vaqtni o'quvchilar bilan kelishilgan holda to'g'ri taqsimlash lozim.

3. O'quvchilar guruhlariga bo'lishda birinchi ixtiyoriy holat, keyin esa tasodifiy holatga bo'lish kerak. Chunki yaxshi, aktiv o'quvchilar bir guruhga to'planib qolishi mumkin. Buni oldini olish lozim.

4. Darsda o'quvchilarni guruhlarda bo'lishda, o'quvchilarning psixologik holatini hisobga olish kerak. Bu jarayonni tashkil etish juda nozik bo'lib, darsni qanday o'tishni belgilab beradi. Dastlab o'quvchilar birdaniga darsga kirib ketishga tayyor bo'lmaydilar.

5. Fan o'qituvchisining mahorati o'quvchilarni o'ziga jalb eta olish, so'zlashuv odobi, nutqining qandaydir o'ziga hosligi keyingi darslarda ham shu uslublardan foydalanish kerakligini o'quvchilarda shakllantirish lozim.

“Aqliy hujum” uslubi

Maskur uslub muayyan mavzu yuzasidan berilgan. muommolar hal etishda yaxshi natija beradigan uslub hisoblanadi. U dars jarayoni ishtirokchilarning

muommo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish uchun hamda o'z tasavurlari va g'oyalariidan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma ham malakalar hosil qilishda rag'batlanitiriladi .

Dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishi uchun quyidagi tartibda tashkil etish mumkin .

1. O'quchilarni darsda aktiv qatnashishini tashkil etish .
2. Mavzuga oid g'oyalarni yozib borish uchun ,doska va qog'ozlar tayyorlash

3. Muommoni o'quvchilar ongiga tushunarli qilib yetkazish

4. "Aqliy hujum"uslubini tashkil etish.

A) Har bir o'quvchi tomonidan aytilgan fikrlarni izohlash qat'ian man etiladi

B) Erkin fikirlashi tashkil etish .

S) O'quvchilarning fikrlarini ilg'ab olish , aytilishi bilan yozib olish.

- 5.Fikrlarni so'rash va ularni aytilishi bilan yozib olish.

- 6.G'oyalar yozilgan qog'ozlar to'lsa ularni devorga ilib qoyish.

- 7.O'z fikringni bildirib,yangi g'oyalarni yuzaga kelishiga turtki berish.

8. Ayrim o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar yuzasidan kulish, piching qilish mumkin emas.

9. G'oyalar tugamaguncha ishni to'xtatish shart emas, lekin vaqt reglamenti ham yoddan ko'tarilmasligi kerak.

"Aqliy hujum"uslubini guruhli, yakka tartibda, juftlik asosida tashkil etish mumkin. Shu asosda o'quvchilarga muayyan mavzu boyicha bilganlari yoki o'z fikrlarini alohida qog'ozga mustaqil yozishni aytiladi va ikki daqiqadan so'ng, yonma-yon o'tirgan o'quvchilar bir-birlariga o'girilib yozganlarini o'rtoqlashadilar va o'z ro'yxatlarini birlashtiradilar. Bunda o'quvchilarning soni 10-15 tadan oshmasligi kerak.

Umuman "Aqliy hujum"uslubi dars jarayonida o'quvchilarni faollashtiradi, charchoqni oladi, hammani ishlashga, fikrlashga majbur qiladi. Bu o'z – o'zida ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

II- BOB. YEVROPA MAMLAKATLARINI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'RGANISH

2.1. 9- sinf geografiya ta'limi dasturi

"Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi" (haftada 2 soat. Jami 68 soat)

Kirish (1 soat)

Fanning maqsadi va vazifalari. Tarkibiy qismlari, tuzilishi. Geografik fanlar tizimida tutgan o'rni. Darslik bilan ishlash usullari.

I qism. Jahonning umumiy ta'rif (21 soat)

Jahonning siyosiy xaritasi (2 soat). Siyosiy xarita tushunchasi, shakllanish omillari va bosqichlari. Mamlakatlarning guruhleri va turlari. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Davlat tuzumi. Davlatni boshqarish shakllari (respublika, monarxiya). Xalqaro iqtisodiy va siyosiy tashkilotlar.

Jahon tabiiy resurslari. Atrof-muhitning ifloslanishi (4-soat)

Jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqadorligi va ta'siri. Geografik muhit, atrof-muhit, tabiiy sharoit tushunchalari. Jamiyat bilan tabiatning o'rtasida modda almashinuvi. Resurslar bilan ta'minlanganlik tushunchasi. Tabiiy resurslarning asosiy turlari: mineral, yer, suv, o'simlik, dunyo okceni, iqlim, kosmik, rekreatsion resurslar. Atrof muhitning ifloslanishi. Tabiatni qo'riqlashning asosiy yo'llari. Ekologik siyosat.

Jahon aholisi (3 soat). Aholining soni, o'sishi. Aholining ko'payishi tushunchasi. Tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari. Aholi ko'payishining turlari. Demografik portlash. Demografik siyosat tushunchalari. Aholining tarkibi: jinsiy, yosh bo'yicha, etnik (milliy), diniy tarkibi. Til oilalari va guruhleri. Jahondagi eng yirik til oilalari, guruhleri va millatlar. Jahondagi yirik dinlar.

Aholining joylanishi va migratsiyalar. Aholining notekis joylanishi va zichligi. Migratsiya xususiyatlari, yo'nalishi, sabablari. Turlari (tashqi va ichki migratsiya). Shahar aholisi va uning o'sishi.

Urbanizatsiya tushunchasi, xususiyatlari, urbanizatsiya darajasiga ko'ra mamlakatlarning toifalarga bo'linishi. Qishloq aholisi. Aholi va atrof muhit.

Ilmiy texnika inqilobi va jahon xo'jaligi (2 soat)

Fan-texnika inqilobi haqida tushuncha. Asosiy xususiyatlari: ko'p qirraliligi, qayta qurishni nihoyatda tezlashib yuborishi, insonning ishlab chiqarishdagi o'rnining tubdan o'zgarishi, ilmiy-texnika inqilobi sifatida paydo bo'lganligi. Tarkibiy qismlari: a) fan;.b) texnika va texnologiya; v) ishlab chiqarish; g) boshqaruv. Fantalab tarmoqlar. Texnika va texnologiyaning evolyutsion va inqilobiy taraqqiyoti. Ishlab chiqarish taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari: elektronlashtirish, kompleks avtomatlashtirish, energetika xo'jaligini qayta qurish, yangi materiallar ishlab chiqarish, biotexnologiyaning jadal rivojlanishi, koinotni o'zlashtirish.

Jahon xo'jaligi (1 soat). Jahon xo'jaligi tushunchasi. Jahon bozorining shakllanishi va uning omillari. Jahon xo'jaligining geografik "modeli" ning ko'p markazlilik xususiyati. Xalqaro mehnat taqsimoti haqida tushuncha.

Xalqaro ixtisoslashish tarmog'i, xalqaro iqtisodiy integratsiya, regional iqtisodiy integratsiya (neft ishlab chiqaruvchi mamlakatlar ittifoqi - OPEK).

Fan-texnika inqilobining jahon xalq xo'jaligiga ta'siri (2-soat)

FTI ning xo'jalikning o'sish sur'ati va rivojlanish darajasiga ta'siri. Uchinchi sanoat inqilobi. Xalqaro (transnational) korporatsiyalar. FTI ning jahon xo'jaligidagi asosiy tarmoqlariga, xo'jalik tarmoqlarining joylanishiga, xo'jalikning hududiy joylashishiga (hududiy, iqtisodiy geografik, tabiiy sharoit va resurs, transport, mehnat resurslari, hududiy to'planish, ilmtalablik, ekologik omillar) ta'siri.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda xo'jalikning hududiy tuzilishi va regional siyosat. Iqtisodiy rayonlar tizimi: yuqori darajada taraqqiy etgan rayonlar, tanazzulga uchragan rayonlar, qoloq agrar rayonlar. Rivojlanayotgan mamlakatlarda xo'jalikning hududiy tuzilishi va regional siyosat.

Sanoat geografiyasi (3 soat). Sanoat haqida tushuncha. Sanoatning vujudga kelgan vaqtiga qarab guruhlariga bo'linishi: eski tarmoqlar, yangi tarmoqlar, eng yangi tarmoqlar guruhlari. Yoqilg'i-energetika sanoati. Yoqilg'i ishlab chiqarish va iste'mol qilishning o'sishi. Rivojlanishning uchta bosqichi: ko'mir, neft va

tugamaydigan energetika manbalariga o'tish bosqichlari. Neft va gaz sanoati. Neft qazib oladigan va eksport qiladigan asosiy davlatlar. Yaqin va O'rta Sharq neft havzalari. Gaz sanoati. Ko'mir sanoati. Ko'mir qazib oladigan yirik davlatlar. Ko'mir sanoatining asosiy xususiyati. Elektroenergetika va ularning asosiy tarmoqlari issiqlik energetikasi, gidroenergetika, atom energetikasi, noan'anaviy energiya resurslari.(geotermal, shamol, to'lqin, quyosh,qalqishi energetikasi).

Metallurgiya sanoati: qora metallurgiya. Tayanish turlari: toshko'mir havzalari, temir ma'dani havzalari, kokslanadigan ko'mir va temir ma'dani keltirishga, ist'molchiga tayanish. Qora metallurgiya rivojlangan davlatlar: Yaponiya, AQSH, Rossiya, G'arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy, Braziliya va h.k. Rangdor metallurgiya. Afrikaning mis mintaqasi, alyuminiy sanoati. Rivojlanayotgan mamlakatlarda metallurgiya sanoatining rivojlanishi.

Mashinasozlik. Uning 4 eng asosiy hududi: a) Shimoliy Amerika; b) G'arbiy Yevropa; v) Sharqiy va Janubiy-sharqiy Osiyo; g) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. Mashinasozlik bo'yicha jahonda yetakchi davlatlar. Kimyo sanoati: to'rt eng asosiy hudud: AQSH, G'arbiy Yevropa, MDH, Yaponiya. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ximiya sanoatining shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy xususiyatlari. O'rmon va yog'ochsozlik sanoati. Shimoliy o'rmon mintaqasi (Rossiya, Kanada, Shvetsiya, Finlandiya). Yog'och mahsulotlari eksporti bo'yicha jahonda Kanada yetakchi o'rinni egallab turganligi. Janubiy o'rmon mintaqasi (Braziliya, Tropik Afrika, Janubiy-sharqiy Osiyo).

Yengil sanoat. Asosiy o'zgarishlar. To'qimachilik korxonalari rivojlangan rayonlar: 1) G'arbiy Yevropa; 2) Janubiy Osiyo; 3) MDH; 4) AQSh. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda to'qimachilik sanoatining rivojlanishidagi o'zgarishlari. Rivojlangan davlatlarning to'qimachilik mahsulotlarni eksport qiladigan davlatlarga aylanishi. Sanoat va atrof muhit.

Qishloq xo'jaligi va baliqchilik (2 soat) Moddiy ishlab chiqarishning yetakchi ikkinchi tarmog'i. Tovar qishloq xo'jaligi. Iqtisodiy jihatdan turlicha rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligining o'ziga xos rivojlanishi. Agrobiznes. "Yashil inqilob", uning tarkibiy qismlari: a) yangi ilg'or navlarni yaratish; b)

irrigatsiyani kengaytirish; v) mexanizatsiyalash va kimyolash. Don ekinlari. Bug'doy, sholi va makkajo'xori ekiladigan asosiy rayonlar. Moyli ekinlar, ildizmevali ekinlar. Quvvat beruvchi, tolali o'simliklar. Tabiiy o'simliklar. Tabiiy kauchuk yetishtiriladigan regionlar. G'alla eksport qiladigan asosiy mamlakatlar: AQSH, Kanada, Avstraliya, Fransiya, Argentina. Chorvachilik, asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik. Qishloq xo'jaligi va atrof muhit. Baliqchilik. Dengizlarda, okeanlarda va daryolarda baliq tutish. Jahonda tutiladigan baliqning 50%i oltita davlatga to'g'ri keladi: Yaponiya, Xitoy, Rossiya, AQSh, Chili, Peru. Asosiy baliq ovlanadigan rayonlar. Baliqlarni sun'iy havzalarda ko'paytirish. Akvakultura va marikultura tushunchalari.

Transport geografiyasi (1 soat). Transport moddiy ishlab chiqarishning uchinchi yetakchi tarmog'i. FTI ning transport rivojlanishiga ta'siri. Jahon transport geografiyasi sistemasidagi geografik tafovutlar. Mamlakatlarning ikki guruhi: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar transporti. Regional transport tizimlari. Quruqlik transporti: avtomobil, temir yo'l, quvur transporti. Avtomobil va temir yo'llarning uzunligi va zichligi. Temir yo'l uzunligiga ko'ra yetakchi davlatlar: AQSH, Rossiya, Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya, Argentina, Fransiya, Germaniya va Braziliya.

Suv transporti: dengiz transporti, dengiz trassalari. tashiladigan yuklar: tarkibi;. Dengiz savdo floti. Dengiz floti rivojlangan davlatlar: Liberiya, Panama, AQSH, Yaponiya, Gretsiya, Norvegiya, Buyuk Biitaniya, Shvetsiya, Italiya dengiz portlari. Jahon portlari. Portlarning yuk o'tkazish quvvati. Jahon kema qatnovida yetakchi bo'lgan okeanlar. Dengiz kanallari, bo'gozlari. Ichki suv transport!. Kema qatnovi uchun qulay daryolar. Sun'iy suv yo'llari. Havo transport. Asosiy xususiyatlari. Havo transport eng rivojlangan davlatlar. Aeroportlar. Transport va atrof-muhit.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar (1 soat). Yangi xalqaro iqtisodiy tartib va uning dasturi. Erkin iqtisodiy zonalar. Xalqaro savdo. Tovarlar tarkibi. Jahon savdosining geografik taqsimlanishidagi notekislik. Savdo balansi (muvozanati). Kredit-moliya munosabatlari. Erkin almashinadigan valyuta. Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligi.

Fan-texnika aloqalari. Xalqaro xizmat ko'rsatish sohasi. Xalqaro turizm. Dunyoning bosh turistik mintaqasi - Yevropa.

II bo'lim. Jahonning regional tavsifi (46 soat)

Yevropa mamlakatlari umumiy tavsifi (10 soat)

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasining shakllanishidagi asosiy bosqichlar: birinchi va ikkinchi jahon urushlari hamda hozirgi bosqich. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Urbanizatsiya darajasi va shaharlari.

Xo'jaligining umumiy ta'rifi. Sanoatning asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, yoqilg'i-energetika, metallurgiya, o'rmon, yengil sanoat. Qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligining Shimoliy Yevropa, O'rta Yevropa va Janubiy Yevropa turlari. Baliqchilik. Transporti: temir yo'l, avtomobil yo'llari, daryo, dengiz, havo, quvur transporti. Fan va moliya tizimi: ilmiy tadqiqot va bank markazlari. Dam olish va turizm hududlari. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolar.

Rivojlanishning "markaziy o'qi". Yuksak rivojlangan, eski sanoat, qoloq agrar va yangi o'zlashtirilayotgan rayonlar. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning region xo'jaligi hududiy strukturasiga ta'siri.

Yevropaning subregionlari: Shimoliy, O'rta, Janubiy, Sharqiy Yevropa davlatlari.

Rossiya Federatsiyasi (2 soat). Hududi, chegaralari, geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi. Xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari.

Osiyo (20 soat). Umumiy tavsifi (3 soat). Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasining shakllanishidagi asosiy bosqichlari. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Aholisi. Xo'jaligi. Sanoat rivojlanishidagi olti guruh mamlakatlar. Qishloq xo'jaligining asosiy rayonlari. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolar. Osiyoning subregionlari: Janubi-g'arbiy Osiyo (Arab davlatlari, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Kavkaz davlatlari) Janubiy Osiyo Davlatlari (Hindiston, Pokiston, Butan, Nepal), Janubi-sharqiy Osiyo (Hindi-xitoy yarimoroli

davlatlari, Indoneziya, Malayziya. Singapur, Filippin). Markaziy va Sharqiy Osiyo (Mo'g'iliston Xitoy, Koriya davlatlari Yaponiya).

O'zbekistonga qo'shni mamlakatlar (6 soat). Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tojikiston (4 soat). Umumiy tavsif: mustaqillik yillarida bu mamlakatlarda ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, madaniy o'zgarishlar. Har bir davlatning hududiy chegaralari, aholisi, tabiiy sharoitiga, tabiiy resurslariga xo'jalik va siyosiy jihatdan baho berish. Ularning xo'jaligiga umumiy sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, siyosiy va iqtisodiy aloqalari, O'zbekiston bilan har tomonlama aloqalari, Buyuk Ipak yo'lini tiklash uchun harakati.

Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston (2 soat) Hududi, tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik jihatdan tavsif. Aholisi, xo'jaligi. Tashqi iqtisodiy, siyosiy va boshqa xil aloqalari. O'zbekiston bilan aloqalarining rivojlanayotgani.

Xitoy (3 soat) Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi, demografik siyosati, xo'jaligi, sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Iqtisodiy zonalar (sharqiy, markaziy, g'arbiy).

Yaponiya (2 soat) Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi va uning ko'rsatkichlari. Xo'jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Transporti.

Hindiston (2 soat) Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi, xo'jaligi, sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti.

Janubi-g'arbiy Osiyo davlatlari (2 soat) Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasining shakllanishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Yoqilg'i-energetika resurslari va ularning region davlatlari xo'jaligi rivojlanishidagi ahamiyati. Aholisi. Sanoati va qishloq xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan tarmoqlari. Transporti, subregionlari.

Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari (2 soat) Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi. Davlatlari va davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi. Xo'jaligining xalqaro ixtisoslashgan sohalari. Transporti, subregionlari.

Afrika (3 soat) Maydoni, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi shakllanishidagi asosiy bosqichlar. "Afrika yili". Afrikaning hozirgi siyosiy xaritasi, davlatlari va ularning turlari. Tabiiy sharoitining o'ziga xos xususiyatlari, tabiiy boyliklari: mineral, yer, suv, biologik, rekretsiya. Aholisi va uning asosiy ko'rsatkichlari. Urbanizatsiya darajasi va shaharlari. Xo'jaligi. Afrikaning dunyo xo'jaligida tutgan o'rni. Sanoati. Tog' -kon sanoati. Qishloq xo'jaligi.,Dehqonch'ilik va chorvachilik rayonlari. Afrikaning jahon tog' -kon sanoati ,va qishloq .xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi. o'rni. Sanoat va oziq-ovqatlar yetishtiradigan davlatlar. Transporti va Afrikaning subregionlari.

Avstraliya va Okeaniya (2 soat) Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi. Davlatlari. Orol davlatlarining ko'pligi. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Aholisi. Xo'jalik rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo' jaligi. Chorvachilik. Subregionlari: Avstraliya Ittifoqi, Yangi Zelandiya, Polineziya, Mikroneziya, Melaneziya davlatlari.

Shimoliy Amerika davlatlari (3 soat) Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasining shakllanishidagi asosiy geografik bosqichlar. Tabiiy sharoiti va resurslarining xo'jalik rivojlanishidagi ahamiyati. Aholi tarkibining shakllanishidagi o'ziga xos jihatlari. Urbanizatsiya darajasi, yirik shaharlari. Xo'jaligi. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi, transporti.

AQSH. Maydoni, chegaralari, geografik joylanishining o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Urbanizatsiya darajasi, shaharlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi. Transporti va transport magistrallari. AQSh regionlari.

Markaziy Amerika davlatlari Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi. Davlatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Aholisi. Xo'jalik rivojlanishining asosiy xususiyatlari. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy yutuqlari. O'ziga xos xususiyatlari. Subregionlari. Quruqlikdagi davlatlar, Karib havzasidagi davlatlar.

Kanada Maydoni, chegaralari, geografik joylanishi. Tabiiy sharoiti va resurslari. Tabiiy resurslari joylanishidagi tafovutlar. Sanoati va qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Transporti. Hududiy tafovutlari.

Janubiy Amerika va Karib dengizi bo'yi davlatlari (3 soat)

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Siyosiy xaritasi, davlatlari va davlat tuzumi. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Tabiiy resurslarining joylanishi. Suv resurslari bilan yuqori darajada ta'minlanganligi. Aholisi: ko'payishi, etnik tarkibi, urbanizatsiya. Aholi joylanishidagi uch eng asosiy xususiyat. Urbanizatsiya darajasi va kentlari. Xo'jaligi. Plantatsiya xo'jaligi. Xo'jaligining hududiy tuzilishi va regional siyosat. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolar. Subregionlari: And davlatlari, Materikning sharqiy qismidagi davlatlar. Braziliya xo'jaligi.

Insoniyatning global muammolari (3 soat)

Global muammolar tushunchasi. Tinchlik va qurolsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi. Ekologik muammo, ekologik tanazzul. Demografik muammo. Demografik tanazzul. Demografik. Siyosat energetika va xom ashyo muammolari sabablari va hal qilish yo'llari. Oziq-ovqat muammosi. mazkur muammoni yechishning ekstensiv va intensiv yo'llari. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi. Dengiz xo'jaligi. Dengiz xaritasi. Global muammolarining o'zaro aloqadorligi. Rivojlanayotgan davlatlarni qoloqlikdan chiqarish - eng katta umumbashariy muammo. Global ilmiy bashoratlar. Global ilmiy taxminlar (gipotezalar). Issiqxona samarasi, Yer yuzi aholisi sonining barqarorlashuvi, Oykumenapolis gipotezalari. Global loyihalar. Jahon XXI asrda.

2.2. Yevropa mamlakatlariga umumiy geografik tavsif

Yevropa nisbatan kichik qit'a bo'lsa ham, uning geografik o'rni bu yerda xilma-xil iqlim mintaqalari va tabiat zonalarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qit'aga xilma-xil tabiiy sharoit xosdir.

Yevropa har xil relyef shakllari — tekislik va pasttekisliklar, qir va tog'lar mavjudligi bilan ajralib turadi. Yevropada 26 ta har xil morfostruktura, 9 ta tabiiy-geografik o'lka ajratiladi. Yevropada o'rtacha balandlikdagi tog'lar esa ancha katta maydonni egallaydi. Ularning ko'pchiligidan dovonlar orqali transport yo'llari o'tkazilgan.

Yevropa hududi G'arbiy, Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaga taqsimlanadi.

Yevropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'sish mavjud bo'lgan Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda «Demografik qish» holati xosdir. Tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi.

Yevropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'sish mavjud bo'lgan Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda «Demografik qish» holati xosdir. Tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi. Tug'ilish 26-28 promilledan 11—13 promillega, tabiiy o'sish 16—18 promilledan 2—4 promillega tushib qoldi. Tug'ilish va tabiiy o'sish darajalarining keskin pasayishi har xil sabablar bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtda tug'ilishning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Irlandiya, Luksemburg, Malta, Islandiya va Makedoniya mamlakatlariga xosdir. O'rtacha tug'ilish darajasi Avstriya, Shvetsariya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Gretsiya, Finlyandiya, Fransiya, Slovakiya, Shvetsiyada kuzatilmoqda.

Yevropa — aholi migratsiyalarining ham yirik markazi hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan beri Yevropa aholisi okeanorti mamlakatlariga ko'chib o'tadigan eng katta region hisoblanadi.

Ispaniya subtropik mintaqada joylashgan. Hududining aksar qismi yassitog'lik, o'rtacha balandlikdagi tizmalar, yassitog'liklar va pasttekisliklardan iborat. Syerra-Nevado tizmasidagi Mulasen tog'i (3478 m) Ispaniyadagi eng baland tog'dir. Mamlakatning asosiy daryolari: Tixo, Ebro, Gvadalkvivir, Dyeero, Gvadiana va boshqalar. Ispaniyada uran, mis, simob, qo'rg'oshin, temir, volfram, qalay, oltin, kumush, margimush, marganes konlari bor. Hududning 31% i ekin ekiladigan yerlar. 31% o'rmonlar va butazorlar, 21% o'tloq va yaylovlardan iborat.

Ispaniya subtropik mintaqada. Qirg'oq chizig'ining uzunligi orollar bilan birga 5 ming km dan ko'proq. Ispaniya hududining aksar qismi plato, o'rtacha balandlikdagi tizmalar, yassitog'liklar va pasttekisliklardan iborat. Platolarning balandligi shimoli-g'arbda 800— 1000 m, janubi-sharqda 500—600 m. Ular o'rtasida janubi-g'arbdan shimoli-sharqda yo'nalgan Markaziy Kordilyera tog' tizmalari bor. Ispaniyaning shimoli-g'arbida Galisiya massivi va Leon tog'lari, Biskay qultig'i sohilida Kantabriya tog'lari bor. Ular sharqda Pirenei tog'lariga ulanib ketadi. Janub va janubi-sharqida Andalusiya tog'lari, janubi-g'arbida Andalusiya pasttekisligi bor. Syerra-Nevada tizmasidagi Mulasen tog'i (3478 m) Ispaniyadagi eng baland tog'dir. Ispaniyada uran, mis, simob, qo'rg'oshin, temir, volfram, qalay, oltin, kumush, margimush, marganets konlari bor. Toshko'mir, kaliy tuzi, kaolin, apatit ham qazib olinadi.

Hududi, chegaralari, geografik o'rni. Yevropa qit'asining maydoni 10 mln. kv km ni tashkil etadi. Shundan 5,9 mln. kv km ga teng hududda Rossiyadan tashqari Yevropadagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, sobiq Ittifoq respublikalari joylashgan. Rossiya Federatsiyasi jami hududining 4,1 mln. kv km ga teng qismi Yevropa qit'asiga to'g'ri keladi.

Yevropa qit'asi Shimoldan Janubga (Shpitsbergen orolidan O'rta dengizda joylashgan Krit oroligacha) 5 ming km ga, G'arbdan Sharqqa (Portugaliyaning

Atlantika okeani sohilidan Rossiyaning Ural tog'laridagi Yevropa — Osiyo qit'alari chegarasigacha) 6 ming km ga cho'zilgan.

Yevropa aholisi (Rossiya aholisini hisoblamaganda) 2004- yil boshida mln. kishini tashkil etdi yoki 1900 - yilga nisbatan (300 mln) deyarli ikki marta ko'paydi. Lekin, dunyo aholisi sonidagi uning salmog'i XX asr ichida 18% dan 9% gacha kamaydi.

Yevropa nisbatan kichik qit'a bo'lsa ham, uning geografik o'rni bu yerda xilma-xil iqlim mintaqalari va tabiat zonalarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham qit'aga xilma-xil tabiiy sharoit xosdir.

Yevropa har xil relyef shakllari — tekislik va pasttekisliklar, qir va tog'lar mavjudligi bilan ajralib turadi. Yevropada 26 ta har xil morfostruktura, 9 ta tabiiy-geografik o'lka ajratiladi. Yevropada o'rtacha balandlikdagi tog'lar esa ancha katta maydonni egallaydi. Ularning ko'pchiligidan dovonlar orqali transport yo'llari o'tkazilgan.

Yevropa hududi g'arb, shimol va janub tomonlardan dengiz va okeanlar suvi bilan o'ralgan. Shuning uchun ham Yevropada (Rossiyani hisobga olmaganda) dengizdan 600 km uzoqlikda bo'lgan joy yo'q. Jumladan, Buyuk Britaniyaning katta qismida aholi dengizdan atigi 60—80 km ga teng uzoqlikda istiqomat qiladi. Boshqa qit'a va materiklardan farqli o'laroq, Yevropa hududining 28% i inson tomonidan o'zlashtirilmagan, xolos.

Yevropa hududi G'arbiy, Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Yevropaga taqsimlanadi.

Ushbu regionlar ichida iqtisodiy jihatdan G'arbiy va Shimoliy Yevropa eng rivojlangan, Sharqiy Yevropa esa nisbatan bo'sh rivojlangan hisoblanadi.

Yevropa mamlakatlari aholisi. Yevropada murakkab demografik vaziyat mavjud bo'lib, u mamlakatlar va regionlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida eng past darajadagi tug'ilish va tabiiy o'sish mavjud bo'lgan Yevropaga hozirgi vaqtda barqaror tarzda «Demografik qish» holati xosdir. Tug'ilish va tabiiy o'sish sur'atlari XX asrning ikkinchi yarmida keskin qisqardi. Tug'ilish 26-28 promilledan 11—13 promillega,

tabiiy o'sish 16—18 promilledan 2—4 promillega tushib qoldi. Tug'ilish va tabiiy o'sish darajalarining keskin pasayishi har xil sabablar bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtda tug'ilishning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Irlandiya, Luksemburg, Malta, Islandiya va Makedoniya mamlakatlariga xosdir. O'rtacha tug'ilish darajasi Avstriya, Shvetsariya, Niderlandiya, Norvegiya, Portugaliya, Gretsiya, Finlyandiya, Fransiya, Slovakiya, Shvetsiyada kuzatilmoqda. Shular bilan birga, tug'ilish darajasi keskin pasayib, tabiiy o'sish manfiy ko'rsatkichga ega (o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ortiq) bo'lgan mamlakatlar soni yildan- yilga ko'payib bormoqda. Bolgariya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Ukraina, Ruminiya, Estoniya, Moldova, Vengriya shunday mamlakatlar jumlasidandir. Mazkur davlatlarda tug'ish yoshidagi ikki ayolga tug'ilgan ikki-uch bola to'g'ri kelmoqda, xolos. Natijada, aholining mutlaq soni kamaymoqda.

Yevropa aholi o'rtasida umumiy o'lim koeffitsiyentining nisbatan yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Aholining har 1000 kishiga nisbatan o'lganlar bu yerda 2003-yilda 12 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholining yosh tarkibida keksa yoshdagilarning ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Fransiya, Belgiya, Niderlandiya, Norvegiya, Finlandiya va b.) da yana ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi. Shu vaqtning o'zida aholi tarkibida bolalar va yoshlar salmog'i nisbatan katta bo'lgan mamlakatlar (Portugaliya, Polsha, Gretsiya, Italiya, Albaniya) da umumiy o'lim koeffitsiyenti birmuncha pastdir.

Yevropa davlatlari (Albaniyadan tashqari) aholi sonini tabiiy takror barpo etilishining birinchi turiga mansubdirlar. So'nggi chorak asrda Bolgariya va Vengriyada faol demografik siyosat olib borildi. Shunga qaramasdan aholining o'sish sur'atlari deyarli o'zgarmadi va uning darajasi pasayishda davom etdi. Oqibatda, Vengriyada aholi soni 1980—2003- yillarda 220 ming kishiga qisqardi. Ruminiyada har 1000 ta tug'ilgan go'dakdan 23 tasi bir yoshga yetmasdan o'lmoqda. G'arbiy Yevropada bu ko'rsatkich 6—10 bolaga to'g'ri keladi. Umumiy tarzda shuni ta'kidlash mumkinki, XX asrning so'nggi 10 yili va XXI asrning dastlabki davrida Sharqiy Yevropada qoniqarsiz demografik vaziyat yuzaga keldi.

Yevropa — aholi migratsiyalarining ham yirik markazi hisoblanadi. Buyuk geografik kashfiyotlar davridan beri Yevropa aholisi okeanorti mamlakatlariga ko'chib o'tadigan eng katta region hisoblanadi. Bir asr davomida (1815—1914-yillar) emigratsiya 35—40 mln. kishini qamrab oldi. Ikkinchi jahon urushi davrida ayrim davlatlardan yoppasiga aholining emigratsiyasi kuzatildi. Birinchi navbatda bu Sharqiy Yevropada namoyon bo'ldi.

**Yevropa mamlakatlarida mehnatga yaroqli aholi bandligi
(jami band aholiga nisbatan % hisobida)**

Shvetsiya	79
Buyuk Britaniya	77
Finlandiya	75
Niderlandiya	73
Avstriya	71
Germaniya	71
Fransiya	69
Italiya	59

XX asr 50 - yillarining o'rtalarida G'arbiy Yevropada emigratsiya immigratsiyadan ustun kelardi, lekin keyinchalik ahvol keskin o'zgarib, G'arbiy Yevropa dunyodagi eng ko'p aholini qabul qilish markaziga aylanib qoldi. 70-yillarning boshida immigrantlar soni 10 mln. bo'lsa, 90- yillarning boshida ularning soni 15 mln. ga yetdi.

G'arbiy Yevropaga aholining oqib kelishi sabablarini chet el va mahalliy geograflar o'rganib quyidagi xulosaga keldilar. Immigrantlar, asosan, katta pul topish hamda mehnat va hayotning qulay sharoitlari izidan keladi. Tahlil natijasida aniq bo'ldiki, immigrantlarning aksariyat qismi yirik sanoat rayonlarida va katta shaharlarda istiqomat qiladi. Masalan, Fransiyadagi immigrantlarning 37 % i Parijda, Belgiyada esa ularning 24 % i Brusselda yig'ilgan. Buning asosiy sababi past malakali, «kelgindi» ishchilar eng avvalo qurilish, tog'-kon sanoatida hamda farrosh, gazeta sotuvchisi bo'lib ishlaydi. Masalan, Fransiyadagi «kelgindi»

ishchilarning 45% i qurilish sanoatida, 40 % i yo'l ishlarida, 15 % i avtomobilsozlik sanoatida ishlaydi.

Sharq davlatlari bilan bir qatorda, Yevropani ham qadimgi shaharlar vatani deb atasa bo'ladi. V.V.Pokshishevskiyning aytishicha, bu shaharlarning tarixi o'rta asrlar davriga, hatto Rim imperiyasi davrigacha borib taqaladi. Bundan kelib chiqadiki, bu regionda, boshqalardan farqli o'laroq, urbanizatsiya jarayoni ertaroq paydo bo'lgan. XX asr boshidayoq butun jahon yirik shaharlarining 1/3 qismi Yevropaga to'g'ri kelar edi. Hozirgi vaqtda bunday shaharlar soni 400 taga yetgan. Ulardagi urbanizatsiya darajasi 75% ga yetdi. Yevropa mamlakatlarida aholini taqsimlashning zamonaviy shakli -- shahar aglomeratsiyasi vujudga kelgan va u rivojlanib bormoqda. Ularning taqsimlanishi quyidagicha: Fransiya — 74, GFR — 72, Buyuk Britaniya — 68, Italiya — 56, Ispaniya — 37, Niderlandiya — 22, Shvetsiya -11, Belgiya — 10 ta shahar aglomeratsiyasi joylashgan. Buyuk Britaniyaning eng asosiy va katta London aglomeratsiyasi yoki konurbanizatsiyasi bo'lib, unda 12 mln. kishi istiqomat qiladi. Undan keyin o'rinlarda G'arbiy Midlend (2,7 mln.), Katta Manchester (2,6 mln.), Lids yoki G'arbiy Yorkshir (2,0 mln.), Liverpool (1,5 mln.), Janubiy Yorkshir (1,3 mln.) aglomeratsiyalari bor.

Yevropa mamlakatlari xo'jaligi. Yevropa bugungi dunyoda iqtisodiy, fan-texnika va madaniy salohiyat ulkanligi va serqirraligi, industrial tarmoqlar, aholi va shaharlarning juda yuqori darajada konsentratsiyalashganligi, rivojlangan infratuzilmasi bilan alohida ajralib turadi. Yevropada qadimgi va yangi davrlar, an'anaviy sohalar va engi texnologiyalar, tarixiy shaharlar va o'ta madaniy landshaftlar, bahaybat aeroportlar va transkontinental tezyurar magistrallar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Yer quruqlik yuzasining atigi 5% ni egallagani holda Yevropa (Rossiyasiz) jahon aholisining 8% ni o'zida jamlaydi. Bu yerda iqtisodiy va demografik salohiyati ulkan davlatlar GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya bilan bir qatorda mitti mamlakatlar Vatikan, Monako, San-Marino va boshqalar keng tarqalgan.

Yevropa dunyoning yuqori darajada urbanizatsiyalashgan regionidir. Shahar aholisining salmog'i 65—68% dan (Janubiy Yevropa davlatlari) 74—92% gacha (Markaziy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari) boradi. Yevropa Ittifoqining o'zida salkam 50 ta millioner shahari mavjud.

Yevropaga jahon miqyosida YAMD ning salkam 30%i (AQSh ga 32% Yaponiyaga 15% i), jahon eksportining 20% i (AQSh 12—14%, Yaponiyaga 8-9%) to'g'ri keladi.

Dunyoda mavjud 10 ta eng boy mamlakatning 7-si, 100 ta eng yirik TMK ning 32-si, 20 ta eng salmoqli bankning 11 -si ham Yevropada joylashgan.

Dunyodagi jami horijiy investitsiyalarning salkam yarmi Yevropa davlatlari) tomonidan jalb qilinadi (ushbu ko'rsatkich AQSh bo'yicha 20% ga teng).

Inson salohiyatining rivojlanish indeksi (aholining turmush darajasi) bo'yicha Yevropa mamlakatlari dunyo miqyosida 4- o'rindan (Niderlandiya) to 31-o'ringa (Portugaliya) bo'lgan joylarni egallaydi.

Yevropada jahonning yetakchi bank-moliya markazi London joylashgan. U barcha ko'rsatkichlar bo'yicha Nyu—York va Tokio shaharlaridan oldinda turadi.

Yevropa jahon xo'jaligida sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, tovarlar va xizmatlar eksporti, oltin va valyuta zaxiralari, xalqaro turizm rivojlanganligi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallaydi. Regionning iqtisodiy salohiyatini “Katta yettilik”ka kiruvchi to'rt davlat — Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya belgilab beradi. Aynan ana shu davlatlar ulkan ishlab chiqarish soha tarmoqlariga ega. Biroq, ular o'rtasida «kuchlar» nisbati oxirgi o'n yil ichida o'zgardi. Hozir asosiy rolni Germaniya o'ynamoqda. Mazkur mamlakat reindustrializatsiya yo'lidan ildam sur'atlarda rivojlanmoqda. Boshqa davlatlar ichida Ispaniya, Niderlandiya, Shveysariya, Belgiya va Shvetsiya katta iqtisodiy salohiyatga ega. Ularning iqtisodiyotlari to'rt yirik davlatlardan farqli o'laroq, Yevropa va butun dunyoda tan olingan alohida tarmoqlarga ixtisoslashgan. Iqtisodiy ochiqlik Belgiya va Niderlandiyada keng tus olgan. Qit'ada Sharqiy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti ham munosib o'rin egallaydi. Ushbu

mamlakatlarda **XX** asrning 80—90- yillaridan boshlab bozor tamoyillariga asoslangan tizimga o'tish boshlandi.

Sanoati va qishloq xo'jaligi. Yevropaning xalqaro-geografik mehnat tizimidagi o'rni va ahamiyati 200 yildan ziyod davr mobaynida sanoat orqali belgilanadi. Hozirgi vaqtda ham sanoat yuqori sur'atlarda rivojlanishda davom etmoqda.

Mashinasozlik Yevropaning yetakchi sanoat tarmog'i hisoblanadi. Mazkur tarmoq butun sanoat mahsulotining 1/2 qismini, eksportning 2/3 qismini tashkil qiladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik yuksak darajada rivojlangan. Dunyoda “**Renault**” (Fransiya), “**Wolkswagen**”, “**Mercedes-Benz**” (GFR), “**Fiat**” (Italiya), “**Volvo**” (Shvetsiya), “**Tatra**” (Chexiya) kabi avtomobil markalari mashhurdir.

Harbiy sanoat markazlari bo'lib Myunxen, Tuluza, Turin, Manchester, Brussel shaharlari hisoblanadi.

Mashinasozlik, avvalo, mehnat resurslari, ilmiy baza va rivojlangan infratuzilmaga asoslanadi. Lekin, bulardan ham ko'proq yirik shaharlar va aglomeratsiyalarga, poytaxtlarga intiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada elektro-texnika, elektronika, kosmik va aviaraketa sanoati tarmoqlarining rivojlanganligi bo'yicha London, avtomobilsozlik bo'yicha Birmengem, to'qimachilik mashinasozligi bo'yicha Manchester, kemasozlik bo'yicha Glazgo shaharlari va rayonlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Yevropada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyin ikkinchi o'rinda kimyo sanoati turadi. Qit'ada nafaqat regionning, balki butun dunyoning eng “kimyolashgan” davlati — GFR joylashgan. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kon-kimyo xomashyosiga asoslangan holda rivojlangan edi. Kaliy va osh tuzlari, oltingugurt va boshqa shu kabi xom ashyodan foydalaniladi.

Qit'ada neft va tabiiy gaz konlarining ochilishi neft-kimyo tarmog'ining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Yevropaning g'arbiy hududlarida joylashgan Temza, Sena, Reyn, Elba, Rona kabi daryolar nomlari bilan bog'liq holda neftni qayta ishlovchi markazlar barpo etildi. Eng yirik neft-kimyo tarmog'i Niderlandiyaning Rotterdam shahri rayonida joylashgan. Qit'aning sharqidagi neft va gaz magistral

quvurlari o'zining yonida neft va tabiiy gazni qayta ishlovchi korxonalar va neft-kimyo majmualarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Chexiya, Slovakiya, Polsha va Vengriyadagi neftni qayta ishlovchi korxonalar ham quvurlarga yaqin hududlarda barpo qilingan. Bolgariyadagi neft-kimyo majmuasi Qora dengiz sohilida joylashgan.

Yevropaning ko'pchilik davlatlarining yoqilg'i-energetika xo'jaligida neft va tabiiy gaz muhim o'rin egallaydi. Mazkur xom ashyo turlari regionning ehtiyojini to'la-to'kis qondirmaydi. Yetishmagan xom ashyo boshqa mamlakatlardan, avvalo Rossiyadan hamda Shimoliy Afrika va Fors ko'rfazidan import qilinadi.

Yevropaning Polsha va Chexiya davlatlarida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir katta miqdorda qazib olinadi.

Jahon miqyosida yoqilg'i-energetika balansida muhim rol egallagan qo'ng'ir ko'mir havzalari qatoriga **Balxatuv** (Polsha), **Shimoliy Nesh** (Chexiya), **Post Lauziya** va **Galle-Leypsig** (Germaniya) havzalari kiradi. Issiqlik elektr stansiyalarining ham ko'pchiligi ko'mir havzalariga tortiladi. Lekin IES larining asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan. Elektr energetika tizimida AES lar muhim o'rin egallaydi. Bu o'rinda, ayniqsa, Fransiya, Belgiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Bolgariya davlatlari ajralib turadi. Ularning hududlarida 80 dan ortiq AES joylashgan.

Dunay va uning irmoqlarida hamda Rona, Reyn, Dnepr, Dnestr va boshqa daryolarda ayrim GES lar va ularning kaskadlari barpo qilingan.

Metallurgiya tarmog'i Yevropada yuz bergan fan-texnika inqilobidan ham ilgari shakllangan.

Qora metallurgiya avvalambor yoqilg'isi va xom ashyosi mavjud bo'lgan Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Polsha, Chexiyada rivojlandi.

Rangli metallurgiyaning asosiy tarmoqlari aluminiy va mis sanoatidir. Aluminiy ishlab chiqarish xomashyo va elektr energiyaga boy Fransiya, Italiya, Vengriya, Ruminiya, Gretsiya, Germaniya mamlakatlarida rivojlangan. So'nggi paytlarda aluminiy korxonalari, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan (Surinam,

Yamayka, Gvineya, Gviana, Hindiston) olinadigan xom ashyoga tayanmoqda. Mis sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polsha hamda Bosniya va Gersogovinada rivojlangan.

Yevropada yengil sanoat o'zining oldingi ahamiyatini birmuncha yo'qotdi. Eski to'qimachilik rayonlari hisoblanmish Buyuk Britaniyadagi Lankashir va Polshadagi **Lodz** hozirgi vaqtda ham faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin so'nggi yillarda yengil sanoat Janubiy Yevropaga ko'chayotganligini ta'kidlab o'tish lozimdir. Janubiy Yevropa regionini arzon ishchi kuchiga boy. Ana shunday mamlakatlardan biri Portugaliya Yevropaning asosiy tikuvchilik fabrikasi bo'lib qoldi, poyabzal ishlab chiqarishda dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

Yevropa mamlakatlarida sanoatning boshqa tarmoqlari ham yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yalpi hosili va turlari bo'yicha Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi o'zlarining ichki ehtiyojlarini to'la qondiradi va ularning qolgan qismini eksport qiladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakatlarning agrar munosabatlarida, yer egaligi va unga ishlov berish tizimida universal mayda dehqon xo'jaligidan katta ixtisoslashgan yuqori tovar ahamiyatga ega xo'jalikka yetish bilan bog'liq bo'lgan bir qator o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Qishloq xo'jaligi korxonasining asosiy shakli sifatida yuqori darajada mexanizatsiyalashtirilgan fermer xo'jaligi qabul qilindi. Bu o'rinda, ayniqsa, chorvachilik tarmog'ida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlab o'tish zarurdir. Binobarin, chorvachilik Yevropaning juda ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, Daniyada yuqori darajada rivojlangan bo'lib, u xalqaro ixtisoslashuv tarmog'iga aylandi. Daniya sariyog', sut, pishloq chuchqa go'shti, tuxum yetishtirish va eksport qilish bo'yicha dunyoning eng yirik davlatlaridan biriga aylandi. Uni Yevropaning «sut fermasi» deb atalishiga ham sabab shudir. Dehqonchilik aholining asosiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmasdan, balki chorvachilik tarmog'iga ham xizmat qiladi. Hosildor yerlarning aksariyat qismi madaniy ekinlar yetishtirishga ajratilgan.

Janubiy Yevropada dehqonchilik chorvachilikdan ustun ahamiyatga ega. Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya va boshqa mamlakatlar boshoqli (bug'doy, arpa, suli, sholi) va moyli (zaytun daraxti, kungaboqar) ekinlarini yetishtirish bo'yicha dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi.

Yevropa mamlakatlari transport. Yevropa mamlakatlari yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Regionda transportning deyarli barcha turlari taraqqiy etgan. Dunyodagi jami aloqa yo'llari, transport korxonalari va transport vositalari birgalikda **jahon transport tizimini** tashkil qiladi. Jahon transportida 100 mln dan ortiq, Yevropa mamlakatlarida 20 mln. kishi ish bilan band. Yevropa mamlakatlarida o'rtacha yiliga 20 mlrd. t yuk va 200 mlrd. kishi transportning barcha turlari yordamida tashiladi. Ushbu jarayonda 130 mln. avtomobillar, salkam 10 ming dengiz kemalari, 2 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv ishtirok etadi.

Yevropada yo'lovchi tashish transportida avtomobil transport! yetakchilik qiladi. Unga jam! tashilgan yo'lovchilarning deyarli yarmi to'g'ri keladi. Dengiz transport! yuk tashishda tengsiz hisoblanadi. Uning jami tashilgan yukdagi ulushi 62 foizni tashkil etadi.

Yevropada temiryo'l transporti Rossiya, GFR, Fransiya va boshqa ko'pchilik mamlakatlarda rivojlangan. Rossiyada 87 ming km, GFR da 44 ming km va Fransiya 33 ming km temiryo'l qurilgan. Temiryo'llarning katta qismi elektrlashtirilgan.

Ma'lumki, avtomobil transportining rivojlanishi unda mavjud mashinalar soniga bog'liq. GFR (35 mln. dona), Italiya (31 mln.), Fransiya (28 mln.), Buyuk Britaniya (24 mln.), Rossiya (18 mln.), Ispaniya (16 mln. dona) davlatlari yetakchilik qiladilar.

Yevropada quvur transporti ham yuqori darajada rivojlangan. G'arbiy, Sharqiy, Shimoliy va Janubiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi bir-biri hamda Rossiya bilan neft va tabiiy gaz quvurlari orqali bog'langan. Neft va gaz quvurlari Shimoliy va Norvegiya dengizlari akvatoriyalarida ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Yevropa mamlakatlarida dengiz transporti ham, ichki suv transporti ham rivojlangan. Dengiz transporti **Niderlandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya, Polsha, Shvetsiya, Norvegiya** va boshqa mamlakatlarda rayonlararo va xalqaro ahamiyatga ega.

Dunyoda yuk aylanmasi yiliga 200 mln. tonnadan yuqori bo'lgan dengiz portlari ichida Rotterdam porti (300 mln. t) nafaqat Niderlandiyada, balki butun dunyoda tengi yo'q hisoblanadi.

Ichki suv yo'llari Rossiya, GFR, Niderlandiya va qator boshqa mamlakatlarda yuqori darajada rivojlangan.

Havo transporti Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Rossiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, bir yilda 60 mln. yo'lovchini tashuvchi London, Frankfurt-Mayn, Parij shaharlari keskin ajralib turadi.

YEVROPA MAKROMINTAQASI G'ARBIY YEVROPA MINTAQASI

№	Mamlakatlar	Maydoni ming km.kv.	Aholisi mln kishi	Poytaxti
1.	Avstriya (Avstriya Respublikasi)	83,8	8	Vena
2.	Andorra	0,5	0,10	Andorralla-Velya
3.	Belgiya	30,5	10,7	Bryussel
4.	Vatikan	0,0004	0,008	Vatikan
5.	Buyuk Britaniya	244,1	61,3	London
6.	Gibraltar	0,006	0,03	Gibraltar
7.	Gretsiya	131,9	11,2	Afina
8.	Germaniya	356,9	82,2	Berlin
9.	Daniya	43,1	5,7	Kopengagen
10.	Irlandiya	70,3	4,5	Dublin
11.	Islandiya	103,0	0,3	Reykjav
12.	Ispaniya	504,7	46,5	Madrid
13.	Italiya	301,2	59,9	Rim
14.	Lixtenshteyn	0,16	0,040	Vadup
15.	Lyuksemburg	2,6	1	Lyuksemburg

16.	Malta	0,3	0,4	Valetta
17.	Monako	0,002	0,030	Monako
18.	Niderlandiya	41,2	16	Amsterdam
19.	Norvegiya	324,2	4,8	Oslo
20.	Portugaliya	92,1	10,6	Lissabon
21.	San-Marino	0,061	0,030	San-Marino
22.	Finlyandiya	337,0	5,3	Xelsinki
23.	Fransiya	551,6	62	Parij
24.	Shvetsiya	450	9,2	Stokgolm
25.	Shveysariya	41	7,6	Bern

SHARQIY YEVROPA MINTAQASI

№	Mamlakatlar	Maydoni ming km.kv.	Aholisi mln kishi	Poytaxti
1.	Albaniya	29,7	3,2	Tirana
2.	Bolgariya	110,9	7,6	Sofiya
3.	Bosniya va Gersogovina	51,0	3,8	Sarayevo
4.	Vengriya	93,0	10	Budapesht
5.	Polsha	312,7	38,1	Varshava
6.	Ruminiya	237,5	22	Buxarest
7.	Slovakiya	49,0	5	Bratislava
8.	Chexiya	78,9	10,4	Praga
9.	Makedoniya	25,7	2	Skopje
10.	Serbiya	88,4	7,4	Belgrad
11.	Chernogoriya	13,8	0,6	Podgoritsa
12.	Xorvatiya	56,6	4,4	Zagreb
13.	Kosova		2,2	
14.	Sloveniya	20,2	2,0	Lyublyana
	Jami:	1166,4	118,7	

2.3. Yevropa mamlakatlarining “Transport geografiyasi” mavzusini ta’lim texnologiyalari asosida o’qitishga doir

Darsning maqsadi: Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy madaniy hayotida transportning ahamiyatini tushuntirish. Asosiy tushunchalar “transport tuguni”, “magistral yo’li”, “yuk oboroti”, “transportdan foydalanish” kabi umumiy tushunchalarni muayyanlashtirish. O’qituvchilarda transport sohasida ishlashga havasni kuchaytirish.

Darsga zarur jihozlar. Transport kartasi, Yevropaning iqtisodiy o’quv kartasi, mamlakatda qurilayotgan yangi temir yo’llari sxemasi.

Mavzuni o’rganish. Suhbat metodi, darslik bilan mustaqil ishlash metodi.

Darsning borishi. Transportning jahon xo’jaligadagi ahamiyati, funksiyasi tushuntiriladi. Har qaysi transport turini o’rganishda uning qanday tabiiy, iqtisodiy shart-sharoitlar taqozosi bilan rivojlanganligini ochib berishga intilish lozim.

Tayanch tushunchalar: Transporti: temir yo’l, avtomobil yo’llari, daryo, dengiz, havo, quvur transporti. Fan va moliya tizimi: ilmiy tadqiqot va bank markazlari. Dam olish va turizm hududlari. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolar.

O’quvchilarni diqqatini mustaqil dunyoda transport tarmoqlarini tobora rivojlanib borayotgan, yangi avtomobil yo’llari, temir yo’llari qurilayotgan bo’yicha aniq ma’lumot beriladi. Daryo, dengiz transportining iqtisodiy ahamiyati temir yo’l va avtomobil transportlaridan farqi. Rivojlangan mamlakatlarga havo yo’llari ochilgani to’g’risida ma’lumot beriladi.

Havo transporti o’rganishda uning ahamiyati ortib borayotgani, passajirlar va yuk tashishdagina emas, qishloq xo’jaligi ishlarida, meditsina xizmati ko’rsatishda, foydalanilayotgani ham aytiladi. Shundan so’ng o’quvchi yashab turgan davlatning markazidan mamlakatning qaysi shaharlariga havo transportiga passajirlar va yuk tashish mumkinligi suhbat yo’li va hamda darslikdagi karta sxemani ko’zdan kechirish yo’li bilan o’rganiladi.

Neft va gaz quvurlari yotqizish va ulardan foydalanishda Yevropa mamlakatlarini O’zbekistonning tabiiy, iqlimiy sharoiti boshqa xususiyatlari bilan

taqqoslash va qaysi turi samaraliroq ekanini aniq misollar bilan tushuntirish kerak. Yangi qurilgan neft va gaz quvurlari bo'yicha to'xtalib o'tiladi.

2.3. Yevropa mamlakatlari transporti mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish

Mavzuning texnologik xaritasi va o'tkazilish ishlanmasi

Mavzu:	3- chorak, 36 - dars O'zbekiston transporti
Maqsad va vazifalar	O'quvchilarga Yevropa mamlakatlarining transporti va ularning qismlari tarkibi, turlari, haqida bilim berish; quruqlik (temiryo'li va avtomobil transporti), suv (dengiz va daryo), havo, quvur (neft va tabiiy gaz tashish) va elektron (elektr uzatish liniyalari) transport turlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish; ularga ijtimoiy - iqtisodiy geografik xaritalardan temir yo'llari va avtomobil yo'llarini topishni o'rgatish va Yevropa mamlakatlarining yirik temir yo'llari va avtomobil yo'llarining yo'nalishlarini aytib xaritadan topa olishni, Yevropa mamlakatlarining transporti tarmoqlariga reja asosida ta'rif yozish ko'nikmasini shakllantirish. O'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, olgan bilimlarini hayot bilan bog'lay olishni, ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirish, Yevropa mamlakatlarining transporti bilan O'zbekistonning transportini rivojlanishini taqqoslash. Tabiatga mehr va muhabbat uyg'otish asosida ekologik tushunchalarni kengaytirish.
O'quv material mazmuni	O'quvchilar mavzuning mohiyatini tushinib yetishlari bunda Yevropa mamlakatlarining transporti tarmoqlarining hosil bo'lishi, temir yo'llari sistemasi, avtomobil yo'llari, quvur transporti, havo yo'llari, suv transporti, elektr energiya tarmoqlari haqida tushuncha berish. Transport tarmoqlarining mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati, tashqi iqtisodiy aloqalar, yuk va yo'lovchi tashishdagi sig'imi haqida ma'lumot berish.
O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: interfaol mashg'ulot: suhbat-ma'ruza, yakka tartibda, kichik guruh, jamoa bo'lib ishlash. Metod: "Aqliy hujum", og'zaki bayon, "Blis so'rov" elementi, savol-javob, grafik test. Vosita: Darslik, mavzu bo'yicha slaydlar, globus, mavzuga oid jadvallar, transporti tarmoqlari aks etgan rangli rasmlar, 9-sinf o'quv atlas va yozuvsiz xarita, tarqatma materiallar, Dunyoning yarimsharlar xaritasi, Yevropa mamlakatlarining ijtimoiy – iqtisodiy xaritasi. Usul: slayd, grafik test.

	Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat testlari. Baholash: rag‘batlantirish, 5 ballik tizim asosida.
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi: Mavzu asosida to‘laqonli ma’lumot berib, o‘quvchilar bilimini oshiradi. Mashg‘ulotda qo‘llanilgan turli metodlar, mustaqil ish bo‘yicha tarqatma materiallar asosida mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma, malakalarini oshiradi. O‘quvchi: Mavzu bo‘yicha yangi bilimlar egallanadi. Guruhlar bilan ishlashni o‘rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko‘rsata olish ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Yozuvsiz xaritada transporti tarmoqlari va uning elementlarini tasvirlay oladi. Transporti tarmoqlariga reja asosida tavsif yoza oladi.
Kelgusi rejalar	O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologilarni o‘zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O‘z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog‘laydi va solishtiradi. O‘quvchi: Mavzu yo‘zasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishlashni o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qo‘shimcha materiallar topishga harakat qiladi.

Dars bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vahti
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashuv. Mashg‘ulotning borishi haqida tushuncha berish.	og‘zaki muloqot	3 daqiqa
2-bosqich Motivatsiya	Nazorat bosqichi “BLIS” so‘rov orqali sinf o‘quvchilarini to‘liq nazorat qilishdan iboratdir. “BLIS” so‘rov o‘tkazishda uning “ha-yo‘q”elementidan foydalanish yaxshi samara beradi.	“BLITS” so‘rov topshiriqlari Shakli: “ha-yo‘q”	8 daqiqa
3-bosqich Mavzu va topshiriqlar bayoni	O‘qituvchining “Transport geografiyasi” mavzusi mazmuni to‘g‘risidagi suhbat-ma’ruzasi (slydlar hamda savollar asosida) – jamoaviy ish va guruhlardagi mustaqil ish Asosiy bosqich: a) “Aqliy hujum” metodi yordamida o‘quvchilarning transport tarmoqlari haqidagi bilimlari aniqlab olinadi.	og‘zaki bayon, tushuntirish, savol-javob	20 daqiqa

	b) yangi mavzu bayoni - transport tarmoqlarini ko'rgazmali usulda muammoli bayon etish o'quvchi bilimlarini to'ldirish.		
4-bosqich Mustahkamlash	Grafik usulda test topshirig'i. Yo'lovchi va yuk tashish jadvali va diagrammasini tahlil qilish.	Grafik usulida test topshirig'i.	12 daqiq
5-bosqich Dars yakuni va mustaqil ish uchun topshiriq	Uy vazifasini bajarish uchun tavsiyalar		2 daqiq

Mashg'ulotning borishi

- Atama va tushunchalar:** 1. Transport (lotincha transporto – tashiyman degan ma'noni anglatadi) moddiy ishlab chiqarishning yuk va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan eng muhim tarmoqlaridan biri.
2. Transport magistrali – texnik jihatdan yaxshi jihozlangan, juda katta yo'lovchi va yuk oqimiga ega bo'lgan yo'l.
3. Suv transporti – tabiiy (daryo, ko'l, dengiz, okean) va sun'iy (kanal, suv ombor) suv yo'llari orqali yuk va yo'lovchi tashiydigan transport turi.
4. Aeroport – yo'lovchi va transport aviasiyasining muntazam ishlashini ta'minlash uchun qurilgan va havo yo'llarida joylashgan doimiy aerodrom.
5. Port – kemalar turishini, yuklarni tushirish-ortishni va kemalarga xizmat qilishni ta'minlaydigan inshootlari, qurilmalari va jihozlari bo'lgan okean, dengiz va ichki suv havzalaridagi joy.
6. Fraxt - suv yo'lida yuk tashish haqi. Bu haq yukning og'irligi, qancha masofaga tashilishi hajmi, kemada tashish vaqt miqdoriga ko'ra belgilanadi. O'zbekiston chetga sotgan mollarini chet el kemalarida tashib, ko'p mablag' sarflashga majbur bo'lmoqda.

Geografik obektlar:

Shvetsiya , Buyuk Britaniya, Finlandiya, Niderlandiya, Avstriya, Germaniya, Fransiya, Italiya ba boshqalar.

O'quvchilar egallash lozim bo'lgan BKM elementlari

Bilimlar:

- Yevropa mamlakatlari transporti va uning turlari haqida bilish;
- Transport tarmoqlari haqida bilish;
- Dengiz va daryo transporti haqida bilish;
- Quruqlik transport turlarini bilish;
- Havo va suv transporti haqida bilish;
- Quvur va elektron transporti tarmoqlari haqida bilish;
- Yo'llarning o'tkazish imkoniyati va magistralar haqida bilish;
- Transportning ishi va yuk tashish hajmi haqida bilish;
- Tonnel va fraxt tushunchalarini bilish.

Ko'nikma va malakalar:

- Yevropa mamlakatlari transporti va uning turlarini aniqlay olish;
- Transport tarmoqlarini aniqlay olishi;
- Quruqlik, havo va suv transporti, quvur va elektron transport turlarini ayta olishi;
- Xaritada transport tarmoqlari yonalishlarini ko'rsata olishi;
- Yozuvsiz xaritada transport tarmoqlari yonalishlarini tasvirlay olishi;
- Yevropa mamlakatlari transportiga reja asosida tavsif yoza olishi.

Tashkiliy qism.

Dars avvalida salomlashib, o'quvchilar davomati aniqlanadi. O'quvchilar bugungi kun ob-havosi va atrof-muhitdagi tabiiy o'zgarishlarga hamda Yevropa mamlakatlaridagi yuz berayotgan iqtisodiy rivojlanishga sharh beradilar. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat qilinadi.

Guruhlash. O'quvchilar qatorlar orqali uch guruhga bo'linadi: " Germaniya ",

" Fransiya ", " Italiya " guruhlari.

“BLIS” so‘rov orqali oldingi darsda o‘tilgan mavzu yuzasidan sinf o‘quvchilarning bilimini tekshirish.

“BLIS” so‘rov topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlari:

- Qisqa vaqtda nazoratni amalga oshirish
- Barcha o‘quvchilarni qamrab olish
- Nazorat materiallari to‘zishning soddaligi
- Natijalarni tekshirib chiqish qisqa vaqtni talab etishi
- Vaqtning qat’iy belgilanganligi nazorat natijalarini realligini ta’minlaydi

“BLIS” so‘rov topshiriqlari:

Shakli: “ha-yo‘q”.

1. Portugaliya Yevropaning asosiy tikuvchilik fabrikasi bo'lib, poyabzal ishlab chiqarishda dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.
2. Janubiy Yevropa regionini arzon ishchi kuchiga boy Xizmat ko'rsatish sohasi muassasalarini joylashtirishda xizmatga talabning davriyligiga e'tibor qaratiladi.
3. Sog'liqni saqlash xizmat ko'rsatish sohalari geografiyasi tarkibiga kiradimi?
4. Eski to'qimachilik rayonlari hisoblanmish Buyuk Britaniyadagi Lankashir va Polshadagi **Lodz** hozirgi vaqtda ham faoliyat ko'rsatmoqda – mi?
5. Mis sanoati Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Belgiya, Polsha hamda Bosniya va Gersogovinada rivojlangan.
6. Aluminiy ishlab chiqarish xomashyo va elektr energiyaga boy Fransiya, Italiya, Vengriya, Ruminiya, Gretsiya, Germaniya mamlakatlarida rivojlangan-mi?
7. Dnepr va uning irmoqlarida hamda Rona, Reyn, Dnepr, Dnestr va boshqa daryolarda ayrim GES lar va ularning kaskadlari barpo qilingan.
8. Elektr energetika tizimida IES lar muhim o'rin egallaydi.
9. Turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi
10. AES larining asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan.

So‘rovni o‘tkazish tartibi:

1. Har bir o‘quvchi uchun individual nazorat topshiriqlari beriladi.

2. “BLIS” so‘rov topshiriqlari uchun javob varaqasi:

Topshiriqni bajarish tartibi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

O‘zingiz to‘g‘ri deb hisoblagan to‘g‘ri javoblarni X belgisi bilan, noto‘g‘ri deb hisoblagan javoblaringizni O belgisi bilan belgilang.

3. O‘quvchi quyidagi shaklda javoblarni belgilaydi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
X	X	X	X	X	O	O	O	O	O

4. Nazorat uchun belgilangan vaqt tugagach o‘qituvchi o‘quvchilarning javob varaqalarini tekshirib chiqadi va baholaydi.

Baholash mezonlari:

- 9-10 ta to‘g‘ri javob uchun “5” ball
- 7-8 ta to‘g‘ri javob uchun “4” ball
- 5-6 ta to‘g‘ri javob uchun “3” ball

Yangi mavzu bayonidan oldin “**Aqliy hujum**” metodi yordamida o‘quvchilarning Yevropa mamlakatlari transporti haqidagi bilimlari aniqlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodi

- Bevosita jamoa bo‘lib “fikrlar hujumi”ni olib borish. Bu uslubdan maqsad-mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ilish, talaba (yoki o‘quvchi)larni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir.
- “**AQLIY HUJUM**” metodi- biror muammo bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir
- «**AQLIY HUJUM**» metodining to‘zilmasi
- Muammoli savol beriladi
- Fikr va g‘oyalar bildiriladi va jamlab boriladi
- Fikr va g‘oyalar guruhlanadi
- Aniq va to‘g‘ri javoblar tanlab olinadi

1. Transport nima?

2. Kim temir yo‘lni ko‘rgan?

3. Yevropa hududida o‘tgan temir yo‘llardan 3 tasini yo‘nalishlari nomini ayting.

4. Siz yashaydigan joyda temir yo'li o'tadimi? Uning yo'nalish nomini ayting.

Yangi mavzuning bayoni

Reja:

1. Quruqlik transporti va uning turlari
2. Suv transporti, havo transporti
3. Quvur transporti, elektron transporti
4. Yuk tashish o'lchamlari.
5. Yevropadagi yirik davlat va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar.
6. Yevropa mamlakatlari va O'zbekistonning Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatlarini tahlil qiling.

Mavzuning bayoni

Transport makroiqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri, iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U ishlab chiqarish bilan iste'molni bog'lab, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi.

Ta'kidlash lozimki, transport sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan geografiyada kam o'rganilgan yoki o'rganilayotgan yo'nalish ekanligi bilan ajralib turadi. Vaholanki, transportsiz hech narsani tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki transport harakat, masofani kesib o'tish, u yoki bu narsani (yuk, yo'lovchi, axborot) tashish, jo'natish demakdir. Iqtisodiy geografiyada transport liniyalar, yo'l, yo'laklar sifatida uning qolgan obyektlarini – areal, tugun va markazlarni bog'lab turadi. Transport to'ri va tizimi har qanday hududning rivojlanganlik, o'zlashtirganlik ko'rsatkichi, hududiy mehnat taqsimotini amalga oshiruvchi, iqtisodiy rayon va ishlab chiqarish majmualarning shakllantiruvchi muhim omilidir. Qolaversa, "arzon", "qimmat", "qulay", "noqulay" tushunchalarining zaminida transport omili yotadi, transport geografik o'rin esa iqtisodiy geografik o'rinning asl mohiyatini aks ettiruvchi asos hisoblanadi.

Odatda, transport deganda uning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

1. Transport – bu vosita, harakatlantiruvchi kuch;
2. Transport – xalq xo'jaligi tarmog'i;
3. Transport, aniqrog'i transport yo'llari – bu ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmog'i, xo'jalik tarmoqlari va aholining

joylashuvda muhim omil (yo'li yaxshi mamlakat boy bo'ladi, boy mamlakatlarning yo'llari esa hammavaqt ham yaxshi bo'lavermaydi);

4. Transportning uzatuvchanlik, bog'lovchilik funksiyasi borligi sababli u aloqa tizimi bilan juda yaqindan aloqador, binobarin, aloqa tizimidagi yangi o'zgarishlar (tele-radio aloqalari, internet va b.) an'naviy transport tarmoqlarining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yevropa mamlakatlari transport. Yevropa mamlakatlari yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Regionda transportning deyarli barcha turlari taraqqiy etgan. Dunyodagi jami aloqa yo'llari, transport korxonalari va transport vositalari birgalikda **jahon transport tizimini** tashkil qiladi. Jahon transportida 100 mln dan ortiq, Yevropa mamlakatlarida 20 mln. kishi ish bilan band. Yevropa mamlakatlarida o'rtacha yiliga 20 mlrd. t yuk va 200 mlrd. kishi transportning barcha turlari yordamida tashiladi. Ushbu jarayonda 130 mln. avtomobillar, salkam 10 ming dengiz kemalari, 2 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv ishtirok etadi.

Yevropada yo'lovchi tashish transportida avtomobil transport! yetakchilik qiladi. Unga jam! tashilgan yo'lovchilarning deyarli yarmi to'g'ri keladi. Dengiz transport! yuk tashishda tengsiz hisoblanadi. Uning jami tashilgan yukdagi ulushi 62 foizni tashkil etadi.

Yevropada temiryo'l transport! Rossiya, GFR, Fransiya va boshqa ko'pchilik mamlakatlarda rivojlangan. Rossiyada 87 ming km, GFR da 44 ming km va Fransiya 33 ming km temiryo'l qurilgan. Temiryo'llarning katta qismi elektrlashtirilgan.

Ma'lumki, avtomobil transportining rivojlanishi unda mavjud mashinalar soniga bog'liq. GFR (35 mln. dona), Italiya (31 mln.), Fransiya (28 mln.), Buyuk Britaniya (24 mln.), Rossiya (18 mln.), Ispaniya (16 mln. dona) davlatlari yetakchilik qiladilar.

Yevropada quvur transporti ham yuqori darajada rivojlangan. G'arbiy, Sharqiy, Shimoliy va Janubiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi bir-biri hamda

Rossiya bilan neft va tabiiy gaz quvurlari orqali bog'langan. Neft va gaz quvurlari Shimoliy va Norvegiya dengizlari akvatoriyalarida ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Yevropa mamlakatlarida dengiz transporti ham, ichki suv transporti ham rivojlangan. Dengiz transporti **Niderlandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya, Polsha, Shvetsiya, Norvegiya** va boshqa mamlakatlarda rayonlararo va xalqaro ahamiyatga ega.

Dunyoda yuk aylanmasi yiliga 200 mln. tonnadan yuqori bo'lgan dengiz portlari ichida Rotterdam porti (300 mln. t) nafaqat Niderlandiyada, balki butun dunyoda tengi yo'q hisoblanadi.

Ichki suv yo'llari Rossiya, GFR, Niderlandiya va qator boshqa mamlakatlarda yuqori darajada rivojlangan.

Havo transporti Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR va Rossiyada yaxshi rivojlangan bo'lib, bir yilda 60 mln. yo'lovchini tashuvchi London, Frankfurt-Mayn, Parij shaharlari keskin ajralib turadi.

Yevropa mamlakatlaridan farqli, O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashgan. Bu yerda "joylashgan" degan so'z ayni vaqtda uning transport geografik xususiyatini, o'rnini ham belgilab beradi. Darhaqiqat, respublikamizning bunday transport geografik o'rne, uning markaziyligini, kesuvchanligini (ya'ni tranzitligini) aks ettiradi, shu bilan birga, mamlakatimizning jahon okeanidan uzoqda, ichkarida joylashganligini bildiradi.

2010 yilda O'zbekistonda transportning barcha turlari orqali 1173,2 mln tonna yuk tashilgan. Bu 2005 yilga qaraganda 1,5 martadan ko'proq demakdir. Jami tashilgan yukning 90,6 foizi birgina avtomobil transporti zimmasiga tushadi. Qolgan transport turlarining bu boradagi ko'rsatkichlari ancha past.

O'zbekistonda jami umumiy ijtimoiy foydalanishda bo'lgan temir yo'llar uzunligi 4229,9 km.

Qattiq qoplamali avtomobil yo'llar uzunligi respublikamizda 41,6 ming km yoki temir yo'llarga nisbatan 10 marta ziyod.

F S M U texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

(M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya:

- *tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga,*
- *erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga,*
- *ochiq holda bahslashishga,*
- *egallangan bilimlarni tahlil qilishga,*
- *qay darajada egallaganliklarini baholashga,*
- *tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.*

«Trahsport geografiyasi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega ?»

F	Fikringizni bayon eting.
S	Fikringizni bayoniga biror sabab ko'rsating.
M	Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
U	Fikringizni umumlashtiring .

Mavzuni mustahkamlash va topshiriqni bajarish uchun tavsiyalar.

Topshiriqlarning o'ziga xos xususiyatlari:

- *Qisqa vaqtda mustahkamlash nazoratini amalga oshirish.*
- *Barcha o'quvchilarning BKM elementlarini qanday darajada egallab olganligini nazorat qila olish.*
- *O'quvchilarda geografik ob'ekt to'g'risida tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.*
- *Nazorat usulining soddaligi.*
- *Natijalarni tekshirib chiqish qisqa vaqtni talab etishi.*

Topshiriqni bajarish tartibi:

- 1. Topshiriq doskada yoki slayd yordamida o'quvchilarga taqdim etiladi.**

1. Transport soʻzining maʼnosini belgilang.
 - ʻA) lotincha, tashiyman
 - V) ruscha, tashiyman
 - S) forsha, tashiyman
 - D) inglizcha, eltuvchi
2. Havo transportiqaysi Yevropaning davlatlarida yaxshi rivojlangan?
 - A) lotincha, tashiyman
 - ʻV) Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Rossiya
 - S) Rossiya, GFR, Niderlandiya
 - D) Polsha, Shvetsiya, Norvegiya
3. Havo transportiida bir yilda 60 mln. yoʻlovchini tashuvchi shaharlarni aniqlang?
 - ʻA) London
 - V) Frankfurt-Mayn
 - S) , Parij
 - D) barcha javoblar toʻgʻri
4. Dunyoda yuk aylanmasi yiliga 200 mln. tonnadan yuqori boʻlgan dengiz portini aniqlang?
 - A) London
 - ʻV) Rotterdam porti
 - S) Frankfurt
 - D) toʻgʻri javob yoʻq
5. Ichki suv yoʻllari rivojlangan davlatlarni aniqlang?
 - ʻA) Rossiya, GFR, Niderlandiya
 - V) Shetsiya, Italiya, GFR
 - S) Norvegiya, Irlandiya, Gretsiya
 - D) toʻgʻri javob yoʻq
6. Dengiz transporti xalqaro ahamiyatga ega boʻlgan mamlakatlarni aniqlang?
 - A) **Niderlandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya**
 - V) **Italiya, Rossiya, Polsha**
 - S) **Shvetsiya, Norvegiya, GFR**
 - D) barcha javoblar toʻgʻri
7. Neft va gaz quvurlari qaysi dengiz akvatoriyalarida faoliyat koʻrsatmoqda?
 - A) Shimoliy
 - V) Norvegiya
 - S) A va S javoblar toʻgʻri
 - D) toʻgʻri javob yoʻq
8. Yevropada yoʻlovchi tashishda qaysi transport yetakchilik qiladi?
 - ʻA) avtomobil
 - V) temir yoʻl
 - S) suv
 - D) havo
9. Yevropa mamlakatlarida oʻrtacha yiliga qancha yuk va qancha kishi transportning barcha turlari yordamida tashiladi?

- ‘A) 200 mlrd. t yuk va 20 mlrd. kishi
- V) 20 mlrd. t yuk va 200 mlrd. kishi
- S) 10 mlrd. t yuk va 20 mlrd. kishi
- D) 200 mln. t yuk va 200 mln. kishi

10. Yevropa mamlakatlarida yuk va yo'lovchi tashishda qancha transport ishtirok etadi? A) 13 mln. avtomobillar, salkam 10 0ming dengiz kemalari, 20 mingdan ortiq samolyot, 4 ming lokomotiv

V) 130 mln. avtomobillar, salkam ming dengiz kemalari, 20 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv

‘S) 130 mln. avtomobillar, salkam 10 ming dengiz kemalari, 2 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv

D) 1,3 mln. avtomobillar, salkam 100 ming dengiz kemalari, 20 mingdan ortiq samolyot, 40 ming lokomotiv

O‘quvchi quyidagi shaklda javoblarni belgilaydi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
a	b	c	h	k	d	m	j	e	l

3. Nazorat uchun belgilangan vaqt tugagach oqituvchi o‘quvchilarning javob varaqalarini tekshirib chiqadi va BKM elementlarini qanday darajada egallab olganligini aniqlaydi

Uyga vazifa uchun topshiriqlar

1. Transport tushunchasining eng muhim belgilarini ayting.
2. Eng muhim gaz va neft quvurlari qayerlardan o'tganini yozuvsiz xaritaga belgilang?
3. Transport tarmoqlarilardan biriga quyidagi reja asosida ta'rif bering.

Savollar

- 1). Yevropa mamlakatlarida ttransportning qaysi turlari rivojlangan?
- 2). Transport tuguni nima? Atlas xaritasidan transport tugunlariga misollar keltiring??
- 3). Mamlakat hayotida transportning roli qanday??
- 4). Transport moddiy ishlab chiqarish sohaning boshqa tarmoqlaridan nima bilan farq qiladi?
- 5). Transport korxonalariga misollar ayting?
- 6). Toshkentdan. avtomobilda Moskva orqali Parijga yetib borish uchun poyezd bilan borishga qaraganda qancha kilometr yaqinligini xaritadan aniqlang?

Uy vazifasini bajarish uchun tavsiyalar:

Uy vazifasi uchun berilgan topshiriq murakkab topshiriqlardan sanaladi. U bir vaqtning o'zida barcha BKM elementlarini qamrab oladi, shu sababli uy vazifasining o'quvchilar tomonidan bajarilishiga o'qituvchi alohida e'tibor berishi lozim.

O'quvchilarga uy vazifasini berishda quyidagilarni hisobga

oling:

- Reja asosida ta'rif berish uchun ma'lumotlarni topish oson bo'lgan daryolarni tanlang. Eng yaxshisi, agar mavjud bo'lsa o'zingiz yashaydigan joydagi daryoni tanlash yaxshi samara beradi.
- O'quvchilarga topshiriqni bajarish tartibini mukammal tushuntirib bering.
- O'quvchilarga uy vazifasini bajarishda zarur bo'ladigan qo'shimcha manbalar topishda yordam bering.

Darsni yakunlash:

Darsga yakun yasash, baholarni e'lon qilish.

2.4. “Germaniya” mavzusini ta’lim texnologiyalari asosida o’qitish

(1 soat)

Mavzuning texnologik xaritasi va o’tkazilish ishlanmasi

Mavzu:	III Germaniya
Maqsad va vazifalar	a). Ta’limiy: O’quvchilarda Germaniya, uning hududi, geografik o’rni, tabiiy sharoiti haqida tishuncha va tasavvur hosil qilish; ularga Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida O’zbekiston bilan aloqasi haqida, Germaniya aholisining soni, tarkibi, zichligi, shaharlari haqidagi bilimlar bilan tanishtirish. b). tarbiyaviy: o’quvchilarda baynalminal tarbiya va madaniyatni shakllantirish; v). rivojlantiruvchi: O’quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, olgan bilimlarini hayot bilan bog’lay olishni, ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirish, Tabiatga mehr va muhabbat uyg’otish asosida ekologik tushunchalarni kengaytirish.
O’quv material mazmuni	O’quvchilar mavzuning mohiyatini tushinib yetishlari bunda Germaniya ga umum geografik tavsfi , geografik o’rni va chegaralari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, xo’jaligi, rivojlanishining asosiy xususiyatlari , xo’jalik tarmoqlarining rivojlanish omillari, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, qishloq xo’jalik ixtisoslashuvi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqida ma’lumot berish.
O’quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: interfaol mashg’ulot: suhbat-ma’ruza, yakka tartibda, kichik guruh, jamoa bo’lib ishlash. Metod: “Aqliy hujum”, og’zaki bayon, “Blis so’rov” elementi, savol-javob, grafik test. Vosita: Darslik, mavzu bo’yicha slaydlar, globus, mavzuga oid jadvallar, Germaniya aks etgan rangli rasmlar, 9-sinf o’quv atlas va yozuvsiz xarita, tarqatma materiallar, Dunyoning yarimsharlar xaritasi, Jahonning ijtimoiy – iqtisodiy xaritasi. Usul: slayd, grafik test. Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat testlari. Baholash: rag’batlantirish, 5 ballik tizim asosida.
Kutiladigan natijalar	O’qituvchi: Mavzu asosida to’laonli ma’lumot berib, o’quvchilar bilimni oshiradi. Mashg’ulotda qo’llanilgan turli metodlar, mustaqil ish bo’yicha tarqatma materiallar asosida mavzu bo’yicha o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalarini oshiradi. O’quvchi: Mavzu bo’yicha yangi bilimlar egallanadi. Guruhlar bilan ishlashni o’rganadilar, eslab qolish, ayta olish, ko’rsata olish ko’nikma va malakalarga ega bo’ladilar. Yozuvsiz xaritada Germaniyaning sanoat tarmoqlari va uning elementlarini tasvirlay oladi. Ijtimoiy – iqtisodiy tarmoqlariga reja asosida tavsif yoza oladi.

Kelgusi rejalar	O‘qituvchi: Yangi pedagogik texnologilarni o‘zlashtiradi va darsda tatbiq etib, takomillashtirishga erishadi. O‘z ustida ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog‘laydi va solishtiradi. O‘quvchi: Mavzu yo‘zasidan berilgan topshiriq ustida mustaqil ishashni o‘rganadi. O‘z fikrini ravon bayon eta oladi. Yangi mavzuga oid qo‘shimcha materiallar topishga harakat qiladi.
------------------------	---

Dars bosqichlari.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	Salomlashuv. Mashg‘ulotning borishi haqida tushuncha berish.	og‘zaki muloqot	3 daqiqa
2-bosqich Motivatsiya	Nazorat bosqichi “BLIS” so‘rov orqali sinf o‘quvchilarini to‘liq nazorat qilishdan iboratdir. “BLIS” so‘rov o‘tkazishda uning “ha-yo‘q”elementidan foydalanish yaxshi samara beradi.	“BLITS” so‘rov topshiriqlari Shakli: “ha-yo‘q”	8 daqiqa
3-bosqich Mavzu va topshiriqlar bayoni	O‘qituvchining “Germaniya” mavzusi mazmuni to‘g‘risidagi suhbat-ma‘ruzasi (slaydlar hamda savollar asosida) – jamoaviy ish va guruhlardagi mustaqil ish Asosiy bosqich: a) “Aqliy hujum” metodi yordamida o‘quvchilarning Germaniya haqidagi bilimlari aniqlab olinadi. b) yangi mavzu bayoni - Germaniya ko‘rgazmali usulda muammoli bayon etish o‘quvchi bilimlarini to‘ldirish.	og‘zaki bayon, tushuntirish, savol-javob	20 daqiqa
4-bosqich Mustahkamlash	Grafik usulda test topshirig‘i. Germaniyadagi sanoat korxonalari jadvali va diagrammasini tahlil qilish.	Grafik usulida test topshirig‘i.	12 daqiqa
5-bosqich Dars yakuni va mustaqil ish uchun topshiriq	Uy vazifasini bajarish uchun tavsiyalar		2 daqiqa

Mashg‘ulotning borishi

- Atama va tushunchalar:** 1. Germaniyaga umum geografik tavsfi ,
2. Geografik o' rni va chegaralari
3. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari
4. Aholisi va mehnat resurslari
5. **Xo'jaligi, rivojlanishining asosiy xususiyatlari** xo'jalik tarmoqlarining rivojlanish omillari, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, qishloq xo'jalik ixtisoslashuvi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari
6. Iqtisodiy rayonlari

Geografik obektlar: Berlin, Frankfurt-Mayn, Shtutgart, Gamburg, Myunxen, Dyusseldorf, Kyoln, Duyusburg, Braunshvays, Gannover, Bremen, Magdeburg, Trir, Nyurnberg, Mangeym

O'quvchilar egallash lozim bo'lgan BKM elementlari

Bilimlar:

- Germaniya2. Geografik o' rni va chegaralari haqida bilish;
3. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari haqida bilish;
4. Aholisi va mehnat resurslari haqida bilish;
5. **Xo'jaligi, rivojlanishining asosiy xususiyatlari** xo'jalik tarmoqlarining rivojlanish omillari, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, qishloq xo'jalik ixtisoslashuvi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqida bilish;
6. Iqtisodiy rayonlari haqida bilish;
- Germaniya va O'zbekiston aloqalari haqida bilish;
 - Transport tarmoqlari turlarini bilish;

Ko'nikma va malakalar:

1. Germaniyaning geografik o' rni va chegaralarini aniqlay olish;
- Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari haqida bilib olishi;
 - Aholisi va mehnat resurslari haqida ayta olishi;
 - Iqtisodiy rayonlarini xaritada ko'rsata olishi;
 - Yozuvsiz xaritada transport tarmoqlari yonalishlarini tasvirlay olishi;
 - O'zbekiston va Germaniyaga reja asosida qiyosiy tavsif yoza olishi.

Tashkiliy qism.

Dars avvalida salomlashib, o'quvchilar davomati aniqlanadi. O'quvchilar bugungi kun ob-havosi va atrof-muhitdagi tabiiy o'zgarishlarga hamda mamlakatimizdagi yuz berayotgan iqtisodiy rivojlanishga sharh beradilar. O'quvchilarning darsga tayyorgarligi nazorat qilinadi.

Guruhlash. O'quvchilar qatorlar orqali uch guruhga bo'linadi:

"Toshkent", "Berlin", "Qarshi" guruhlari.

“BLIS” so‘rov orqali oldingi darsda o‘tilgan mavzu yuzasidan sinf o‘quvchilarning bilimini tekshirish.

“BLIS” so‘rov topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyatlari:

- Qisqa vaqtda nazoratni amalga oshirish
- Barcha o'quvchilarni qamrab olish
- Nazorat materiallari tuzishning soddaligi
- Natijalarni tekshirib chiqish qisqa vaqtni talab etishi
- Vaqtning qat'iy belgilanganligi nazorat natijalarini realligini ta'minlaydi

“BLIS” so‘rov topshiriqlari:

Shakli: “ha-yo‘q”.

10. Yevropada IES larining asosiy qismi dengiz portlari va katta shaharlarda barpo etilgan.?

2. Elektr energetika tizimida AES lar Fransiya, Belgiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Bolgariya davlatlari ajralib turadi. Ularning hududlarida 80 dan ortiq AES joylashgan.

3. Yevropada sanoat tarmoqlari ichida mashinasozlikdan keyin ikkinchi o'rinda kimyo sanoati turadi.

4. **“Wolkswagen”, “Mercedes-Benz” korxonalari** GFRdami,?

5. Mashinasozlik Yevropaning yetakchi sanoat tarmog'i hisoblanadi

6. Yevropada jahonning yetakchi bank-moliya markazi London joylashgan

7. Turizm mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi

8. Dunyoda mavjud 10 ta eng boy mamlakatning 7-si, 100 ta eng yirik TMK ning 32-si, 20 ta eng salmoqli bankning 11 -si ham Yevropada joylashgan- mi?

9. Hozirgi vaqtda tug'ilishning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Bolgariya, Xorvatiya, Latviya, Litva, Ukraina, Ruminiya, Estoniya, Moldova, Vengriyada- mi?

10. Irlandiya, Luksemburg, Malta, Islandiya va Makedoniya mamlakatlariga o'rtacha tug'ilish darajasi xosdir.

So‘rovni o‘tkazish tartibi:

1. Har bir o'quvchi uchun individual nazorat topshiriqlari beriladi.

2. “BLIS” so‘rov topshiriqlari uchun javob varaqasi:

Topshiriqni bajarish tartibi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

O'zingiz to'g'ri deb hisoblagan to'g'ri javoblarni X belgisi bilan, noto'g'ri deb hisoblagan javoblaringizni O belgisi bilan belgilang.

3. O'quvchi quyidagi shaklda javoblarni belgilaydi:

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
---	---	---	---	---	---	---	---	---	----

X	X	X	X	X	O	O	O	O	O
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

4. Nazorat uchun belgilangan vaqt tugagach o'qituvchi o'quvchilarning javob varaqalarini tekshirib chiqadi va baholaydi.

Baholash mezonlari:

- 9-10 ta to'g'ri javob uchun "5" ball
- 7-8 ta to'g'ri javob uchun "4" ball
- 5-6 ta to'g'ri javob uchun "3" ball

Yangi mavzu bayonidan oldin **"Aqliy hujum"** metodi yordamida o'quvchilarning Yevropa mamlakatlari transporti haqidagi bilimlari aniqlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodi

- Bevosita jamoa bo'lib "fikrlar hujumi"ni olib borish. Bu uslubdan maqsad-mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ilish, talaba (yoki o'quvchi)larni ayni bir xil fikrlashdan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir.

"AQLIY HUJUM" metodi- biror muammo bo'yicha o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir

«AQLIY HUJUM» metodining to'zilmasi

- Muammoli savol beriladi
- Fikr va g'oyalar bildiriladi va jamlab boriladi
- Fikr va g'oyalar guruhlanadi
- Aniq va to'g'ri javoblar tanlab olinadi
 1. Germaniya-parlamentar respublika (ha).
 2. Germaniya ochiq dengizga chiqa oladimi? (ha).
 3. Germaniya 17 federal yerlardan (yo'q).
 4. Shimolda tekislik, janubga tomon ko'tarilib boradi. (ha).
 5. Mamlakatning shimolida Shimoliy German pasttekisligi joylashgan (ha).
 6. Markazida Bavariya yassi tog'ligi va Alp (eng baland nuqtasi 2962 metr) tog'lari joylashgan (yo'q).
 7. Shimoliy German pasttekisligida temir rudasi, polimetall bor (yo'q).
 8. Toshko'mirning asosiy havzalari: Rur, Saar va Axen bo'lib, G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida 1-o'rinda turadi (ha).
 9. Germaniyaning maydoni-357 ming km² (ha).
 10. Germaniyani shimoldan Boltiq va Shimoliy dengiz suvlari o'rab turmaydi (yoq).

Yangi mavzuning bayoni

Reja:

GFR davlatiga umum geografik tavsif

- 1.1. Geografik o'рни va chegaralari
- 1.2. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari
- 1.3. Aholisi va mehnat resurslari

GFR davlatlatini xo'jaligi, rivojlanishining asosiy xususiyatlari

- 2.1. Xo'jalik tarmoqlarining rivojlanish omillari
- 2.2. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi
- 2.3. Qishloq xo'jalik ixtisoslashuvi
- 2.4. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari

Germaniya rivojlangan mamlakatlar ichida AQSH va Yaponiyadan keyin 3-o'rinda turadi. Tashqi savdo aylanmasi bo'yicha AQSH dan keyinda turadi. Ko'rgazmali usulda bayon qilinadi. **2.3. "Germaniya" mavzusini**

ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishga doir

Germaniya Federativ Respublikasi Markaziy Yevropada joylashgan industrial mamlakat. U rivojlanganlik darajasi bo'yicha nafaqat Yevropa, balki Jahonda ham o'z o'rniga egadir. Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi rivojlanishining asosiy sababidir. Germaniya-parlamentar respublika. Siyosiy-ma'muriy tuzilishi federatsiya shaklida bo'lib, 16 federal yerlardan iborat. Yerlar okruglarda, tumanlarga va jamoalarga bo'linadi.

Qishloq xo'jaligini intensiv industrialashtirish XX asrning 50-60 yillarida amalga oshirildi va iqtisodiyotning kapital talab tarmog'iga aylandi. GFRning haddan tashqari "O'ta sanoatlashgan"iga qaramay keyingi yillarda YIM tarkibida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va bandlar hissasining qisqarishi va xizmat ko'rsatish sohalari ulushining ko'payib borishi xosdir. GFR transport tizimining rivojlanganligi va transport turi jihatdan dunyoda oldingi o'rinlardan birida turadi.

Relyefi jihatidan xilma-xil bo'lib, shimolda tekislik, janubga tomon ko'tarilib boradi. Mamlakatning shimolida Shimoliy German past tekisligi, mamlakat markazida O'rta German tog'lari (Shvab Albi, Frankon Albi, Reyn Slanetsli tog'lari) janubda Bavariya yassi tog'ligi va Alp (eng baland nuqtasi 2962 metr) tog'lari joylashgan. Foydali qazilmalardan o'rtacha balandlikdagi tog'larda temir rudasi, polimetall, Shimoliy German pasttekisligida neft va tabiiy gaz (34

mlrd m³ ortiq) bor. Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari oʻrtasida toshkoʻmir va qoʻngʻir koʻmirga (1–oʻrinda turadi) boy. Toshkoʻmirning asosiy havzalari: Rur, Saar va Axen boʻlib, 2/3 qismi yuqori sifatli kokslanuvchi koʻmirdir.

GERMANIYA (GFR)

Maydoni-357 ming km²

Aholisi- 82,2 mln. kishi (2008 yil, iyul)

Poytaxti – Berlin (aholisi–3,5 mln kishi).

Iqtisodiy - siyosiy geografik o'rni. Germaniya Markaziy Yevropada joylashgan. Mamlakat quruqlik orqali Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Fransiya, Shveysariya, Avstriya, Chexiya, Polsha va Daniya bilan chegaradosh. Germaniyaning siyosiy va iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishida uning siyosiy va iqtisodiy geografik o'rni muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatning Yevropa markazida joylashgan o'rni va iqtisodiy rivojlangan davlatlar orasida kenglik va meridional yo'nalishda transyevropa magistral yo'lining kesib o'tganligi katta qulayliklarni yaratadi. Germaniyaning dengiz bo'yi o'rni va qo'shni davlatlar yirik shahar portlariga yaqinligi (Rotterdam, Antperven va boshqalar) uning katta imkoniyatlaridan biridir.

Germaniyani shimoldan Boltiq va Shimoliy dengiz suvlari o'rab turadi. Ushbu dengizlarda uning Niderlandiya, Belgiya, Fransiyaning yirik portlaridan keyinda turuvchi Gamburg, Bremen, Vilgelmsxafen, Rostok kabi portlari joylashgan.

Germaniyaning bugungi chegaralari 1990 yil oktabr oyida ikki davlat–GFR va GDR qoʻshilishidan vujudga keldi. Yuridik jihatdan GDR yerlari va Berlin shahri GFR tarkibiga kirganligi rasmiylashtirilgan. Natijada, GFR hududi GDR qoʻshilishidan soʻng 43% ga va aholisi 27% koʻpaydi.

Germaniya parlamentar respublika. Siyosiy – maʼmuriy tuzilishi federatsiya shaklida boʻlib, 16 federal yerlardan: Baden–Vyrtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg–Old Pomeraniya, Quyi Saksoniya, Reynland–Pfals, Shimoliy Reyn–Vestrfaliya, Saar, Saksoniya, Angalt, Tyuringiya va Shlezvig–Golshteyndan iborat. Yerlar okruglarga, tumanlarga va jamaolarga boʻlinadi.

Amaldagi Konstitutsiyaga ko'ra federativ respublika. Davlat boshlig'i – federal prezident. Ijro etuvchi hukumatni federal kansler boshqaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat parlament amalga oshiradi. U ikki palata: bundestagva bundestratdan iborat. Har bir yerning o'z konstitutsiyasi, parlamenti va hukumati mavjud.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Relifi jihatidan xilma–xil bo'lib, shimolda tekislik, janubga tomon ko'tarilib boradi. Mamlakatning shimolida Shimoliy German pasttekisligi, mamlakat markazida O'rta German tog'lari (Shvab Albi, Frankon Albi, Reyn Slanetsli tog'lari) janubda Bavariya yassi tog'ligi va Alp (eng baland nuqtasi 2962 metr) tog'lari joylashgan.

Foydali qazilmalardan o'rtacha balandlikdagi tog'larda temir rudasi, polimetall, Shimoliy German pasttekisligida neft va tabiiy gaz (34 mlrd m³ ortiq) bor. G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtasida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mirga (1–o'rinda turadi) boy. Toshko'mirning asosiy havzalari: Rur, Saar va Axen bo'lib, 2/3 qismi yuqori sifatli kokslanuvchi ko'mirdir.

Mamlakatda rudali foydali qazilmalar o'rtacha balandlikdagi tog'larda, neft va tabiiy gaz esa Shimoliy Germaniya pasttekisligida topilgan. Germaniya G'arbiy Yevropa mamlakatlar orasida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir zahiralar bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Toshko'mirning asosiy konlari Rur, Saar va Axensk hovzalarida joylashgan.

Mamlakatda topilgan qo'ng'ir ko'mir zaxiralarining katta qismi (80 mlrd.t.). Sharqiy Germaniyaning (Lauzis va O'rtagerman havzasi)da, G'arbiy Germaniyada esa Kyolndan g'arbdagi (Qo'yirreyn) havzalarida joylashgan. Qo'ng'ir ko'mir ochiq usulda qazib olinadi. Tabiiy gaz konlari esa (340 mlrd m³) mamlakatning shimolida joylashgan. Germaniya temir ruda zahiralariga ham ega, lekin uning sifati past. Shimoliy Germaniya pasttekisligida tosh tuzining katta zahiralar topilgan. Shuningdek oyna sanoati va qurilish materiallari ishlab chiqarishi uchun xom-ashyo resurslarining katta zaxiralarga ega.

Germaniya iqlim sharoiti aholi yashashi va xo'jalik yuritishi uchun qulaydir. Mamlakat mu'tadil zonada joylashgan. Qishning sovuqligi dengiz qirg'oqlaridan

uzoqlashgan sari oshib boradi, lekin kuchli sovuq kunlar kamdan-kam bo'lib turadi. Yuqori Reyn va uning irmoqlari vodiylarida (Mozel, Nae, Mayn) issiqsevar o'simliklar yetishtiriladi. (uzum va mevalar).

Mamlakatdagi eng yirik daryolarga Reyn, Elba, Vezەر, Ems (Shimoliy va Boltiq dengizi hovzasi) va Dunay (Qora dengiz havzasi) kabi daryolar kiradi.

Aholisi. Ikkala german davlatining birlashuvidan keyin mamlakat aholisi soni ancha o'sdi ya'ni 80 mln kishiga yetdi. Mamlakat aholisi tabiiy ko'payishda o'limning tug'ilishga nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi. (Ayniqsa sharqiy yerlarda) Aholining o'rtacha zichligi har 1 km² ga 200 kishidan ortadi. Bugungi kunda tabiiy o'sish koeffitsiyenti -0,2%, tug'ilish koeffitsiyenti 8/1000 va o'lim koeffitsiyenti 10/1000 bo'lib, millatning qarshi tendensiyasi xosdir. O'rtacha umr ko'rish 79 yosh va ayollarda 82 yosh). Aholining o'rtacha zichligi bir km² ga 230 kishidan to'g'ri keladi.

XX asr 60-yillardan boshlab Germaniyadan iqtisodiy yuksalish natijasida ishchi kuchiga ehtiyoj kuchaydi va mamlakatga chet el ishchilari-"gastrabayterlar" taklif qilinishi oqibatida aholi soni tez o'sdi. Germaniyadagi yuqori ish haqi, shinam va qulay hayot mehnat sharoiti tufayli Italiya, Sobiq Yugoslaviya Respublikalari, Gretsiya, Turkiya, Portugaliya va boshqa mamlakatlardan, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida esa sobiq SSSRdan (Ukraina, Rossiya, Boltiqbo'yi davlatlari va boshqa), Polsha, Ruminiyadan immigrantlar ko'plab kela boshladi va ularning soni 7 mln, kishidan ortib, mamlakat aholisining 8% dar ortig'ini tashkil qiladi.

Germaniyada davlat tili-nemis tili hisoblanadi. Mamlakatning asosiy dini-xristian dini hisoblanadi. Mamlakatda taxminan 58 mln kishi e'tiqod qiluvchilardan 30 mln kishi protestantlar, qolgan 28 mlni kishi katoliklar sanaladi. Bundan tashqari mamlakatda islom diniga e'tiqod qiluvchilar ham bor.

Germaniya aholisining umumiy soni immigrant oqimlar hisobiga o'smoqda. (Turkiyadan, sobiq Yugoslaviya respublika laridan, Italiya, Portugaliya va boshqa mamlakatlardan). Mamlakatning birlashuviga qadar uning g'arbiy yerlarida 5 mln

atrofida, sharqiy qismida esa-0,2 mln chet ellik immigrantlar bo'lgan. Hozirgi vaqtda ularning soni 7 mln kishiga yetadi.

Mamlakat aholisining 87 foizi shaharlarda yashaydi. Ko'pgina shaharlar aglomerasiyalar yadrosini hosil qilgan, 500 mingdan ortiq yashaydigan shaharlar: Berlin, Gamburg, Myunxen, Kyoln, Essen, Dyusseldorf, Frankfurt, Dortmund, Shtutgart, Gannover, Bremen, Duysburg, Lepsig, shuningdek, Drezden, Nyurenberg, Vuppertal, Kil va boshqa. Yirik, ko'p yadroli shahar aglomeratsiyalari: Berlin (3,5 mlndan ortiq), Reyn-Rur, Reyn-Mayn, Shtutgart, Galle-Leypsig, Drezden shaharlari asosan Reyn daryosi va dengiz bo'yicha joylashgan. Shaharlar qadimiy bo'lib, miloddan oldin Rim kolonizatsiyasi davrida va o'rta asrlarda dastlabki universitet shaharlari (Xaydelberg, Frayburg, keyinroq Morburg, Myunstr) shakllangan.

Davlat tuzumi. Germaniyaning hozirgi chegaralari 1990 yilning oktabrida ikkala GFR va GDR davlatlarining birlashuv yo'li bilan tashkil topdi. Natijada birlashuv jarayonidan keyin GFR hududi 47 foizga ko'paydi. Aholisi esa 27 foizga o'sdi.

GFR parlament respublika.

Davlat boshlig'i-prezident. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni aholi to'rt yil muddatga saylaydigan bundestak yer hukumatlari a'zolaridan tayinlanadigan bundestrt (yer palatasi) amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyat federal kansler boshliq hukumatga tegishli.

Mamlakatda to'rtta yirik siyosiy partiya mavjud. Bularga: Xristian, Demokratik Ittifoq, Xristian Sosial Ittifoq, Erkin Demokratik Partiya va Germaniya Sosial-Demokratik Partiyasi faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari Germaniyada Yashillar va kommunistik partiyalar ham faoliyat yuritadi.

Xo'jaligi. GFR dunyo iqtisodiyotining "lokomotivi" sifatida iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va ko'lami, salohiyati, jahon ishlab chiqarishidagi hissassi, xalqaro bozor va xalqaro mehnat taqsimotiga tortilgan ko'rsatkichlari jihatidan yuqori darajada rivojlangan "yettilik" mamlakatlari qatoriga kiradi. YAIM³⁹ va sanoat ishlab chiqarishi hajmi jihatidan dunyoda 4-o'rinda (AQSH, Yaponiya,

Xitoydan soʻng) va tashqi savdo aylanmasi jihatidan 2-oʻrinda turadi. Dunyo eksportining 10%i toʻgʻri keladi. Eng yirik kapital eksporti va importi mamlakatidir. Germaniya 1957 yilda tuzilgan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (bugungi Yevropa Ittifoqi)tuzilishi tashabbuskori sifatida Yevropa kontinentida xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish uchun intilmoqda. Ayni vaqtda 2008 yildan boshlangan moliyaviy inqiroz mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli zarba berdi.

XX asr oxirgi yilligida sharqiy yerlarning qoʻshib olinishi oqibatida sanoat va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi orqaga ketdi. Sotsial muammolar (jumladan, ishsizlik) koʻpaydi. Chunki, 40 yil davomida boʻlingan holda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish (xoʻjalik tarkibi va hududiy tabaqalanish va xoʻjalik rivojlanish darajasidagi farqlar kuchaydi. Jumladan, 1994 yil sharqiy yerlarga 20% mamlakat aholisi toʻgʻri kelgani holda, sanoat mahsulotlari ishlab chiqishining 4% ini berdi, xolos.

Sanoat tarkibida ishlov beruvchi sanoat hissi juda yuqori (qazib beruvchi sanoat hissi Gʻarbiy yerlarda 2%, Sharqiy yerlarda 9%). Qazib beruvchi sanoatda temir rudasi, mis, uran qazib chiqarish, hatto koʻmir qazib chiqarish amalda toʻxtab, nisbatan arzon xomashyo importi kuchaygan.

Germaniya iqtisodiyotida ilmtalab tarmoqlar roli tobora ortib bormoqda. GFR stanoklar, ishlab chiqarish jihozlari, avtomobillar va organik sintez kimyosi mahsulotlari eksporti boʻyicha dunyoda oldingi oʻrinlarda turadi. Yirik sanoat kompaniyalari: “Daimler Benz”, “Volkswaswn”, “Siemens”, “Hoechst”, “Bayer” va boshqa transmilliy korporatsiyalardir. GFR milliy iqtisodiyotining sifat koʻrsatkichlari-mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning kapital bilan taʼminlanganlik darajasi, ilmtalab tarmoqlar hissasining doimiy ortib borishi va boshqa jihatlarga koʻra dunyo xoʻjaligida yetakchi oʻrinlardan birida turadi.

GFR dunyodagi yetarli darajada foydali qazilmalar, qulay agroiklimiy xususiyatlarga ega boʻlmasa-da, milliy iqtisodiyotning rivojlanishida “nemis moʻjizasi”ga erishgan mamlakat. Bunday iqtisodiy moʻjizaga erishishda iqtisodiy oʻsishning qator omillari: ilmiy-texnika progressi yutuqlaridan samarali

foydalanish, “inson kapitalining” yuqori malakaviy sifati va oqilona ichki iqtisodiy siyosat muhim rol o‘ynaydi:

- Germaniya XIX asrdan boshlangan ilmiy va texnik bilimlarga asoslangan jahon andozalaridagi kimyo, optik fizika, metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot an‘analariga egadir;
- Ilmiy-tadqiqotlardagi yutuq va marralar tufayli Germaniya kompaniyalari raqobatda ustunlik qilishiga, sanoat firmalari YEI va boshqa Yeropa mamlakatlarini birgalikda olganda ham ko‘p patent va litsenziyalarga egaligi (ammo Amerika va Yaponiya firmalaridan orqada);
- YAIMda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga harajatlar (3% atrofida) ko‘lami jihatdan dunyodagi beshlikka kirishi (Yaponiya singari urushdan keyingi yillarda o‘zida ilmiy-tadqiqotlarga ko‘p mablag‘ sarflamay, xorij bozorlaridan texnologiyalarning katta qismi sotib olingan), keyingi yillikda davlat fundamental tadqiqotlar, YEI doirasida davlatlararo ilmiy-tadqiqot, kichik biznesda ilmiy-tadqiqot, kichik biznesda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflanadigan mablag‘larning katta qismini o‘z zimmasiga oldi va mamlakat ichki salohiyatini kuchaytirmoqda. Bu esa xalqaro bozorda nemis tovarlarining yuqori raqobatbardoshligini ta‘minlamoqda;
- GFR uchun yuqori intellektual “inson kapital” xos bo‘lib, bu aholining ma‘lumot darajasi, kasbiy-malakaviy tarkibi, ijtimoiy tarkibi, salomatlik juda tez o‘zlashtirishi va o‘ta ijrochilik mahorati bilan ajralib turishi;
- ITI sharoitida mehnatning intelluktuallashuvi va ishchi-xodimlarning mutaxassisligi, ma‘lumotiga bo‘lgan talabning kuchayishi (yuqori malakali ishchilar hissi dunyo bo‘yicha yuqori bo‘lib, 50% ni tashkil qiladi), o‘rta va oliy ta‘lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy ta‘limga e‘tiborning ortib borishi;
- Germaniya urushdan keyingi neoliberalizm konsepsiyasi “sotsial bozor xo‘jaligi” fashistik totalitar iqtisodiyotning muqobil sifatida shakllandi. Bu konsepsiya iqtisodiyot vaziri, so‘ngra federal kansler L.Erxard tomonidan amalga oshirildi. Bu konsepsiya asosida “Freyburg maktabi” olimlari-

V.Oyken va V.Repkening “ordoliberalizm”, qaysiki erkin bozor iqtisodiyoti tarafdorlari va A.Myuller-Armak va boshqalarning “sotsial bozor iqtisodiyoti” ta’limotlari yotadi va bu ta’limotlarning mamlakat ichki iqtisodiy siyosatiga asos qilib olinishi;

- Ishlab chiqarish vositalariga xususiy mulkchilik, erkin raqobat va erkin narxlar asosida ishlab chiqarish resurslarida oqilona foydalanish negizida aholi ehtiyojlarini to‘laroq qondirish;
- Davlatning iqtisodiyotdagi faol roli, qaysiki fuqarolarning iqtisodiy erkinligini ta’minlash, pul muomalasini tashkillash va ma’sulligini olish, iqtisodiy inqirozlarga qarshi kurashish, sotsial adolatni, raqobat uchun teng sharoitni ta’minlash va iqtisodiyotdagi monopolizmga yo‘l qo‘ymaslik tamoyillaridir.

XX asrning 50-yillari oxirida GFRdan yuqori turmush tarzi ta’minlandi. 80-yillardan boshlab iqtisodiy o‘rishning intensiv yo‘llari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda GFR iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos postidustrial jamiyatdir (informatsion jamiyat). Ayni vaqtda Germaniya tarixiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq boshqa mamlakatlardan farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

- Mamlakatning intustriallashuvi va keyinroq (boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan, ya’ni 1871 yil, Germaniya birlashgandan so‘ng boshlandi va XX asr boshlarida asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha Angliyadan o‘tib ketdi (ayniqsa, kimyo va elektrotexnika sohasida). Germaniya iqtisodiyoti uchun “o‘ta industrlashuv” xos bo‘lib, milliy iqtisodiyotda sanoatning hissasi 39% atrofida.
- Ikkinchi jahon urushidan keyin GFR ikkita bo‘lingan holda sanoatda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Ishlov beruvchi sanoatda-kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektro-texnika, avtomobilsozlik, aniq mexanika va optika, aholiga keng iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, xalqaro bozor va xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlariga moslashdi.

- Investitsiya yo‘nalishlari o‘zgardi va 80% kapital qo‘yilmalar modernizatsiyalash va jihozlarni yangilashga, 20%i quvvatlarni kengaytirishga qaratildi.
- Germaniya tovarlari yuqori raqobatbardoshligining asosi mahsulotlarning doimiy yangilanishidir. Natijada, yetakchi sanoat konsernlarining ilmiy-tadqiqotlar asosidagi doimiy yangi mahsulotlari (tibbiyot texnikasi, dori-darmon va boshqa) xalqaro bozorda asosiy o‘rin egallasa, an’anaviy eksport tarmoqlari ham bir qator texnik yutuqlar ta’sirida yetakchilikka ega bo‘lmoqdaki, bu tashqi iqtisodiy aloqalarda ustunlikka ega bo‘lmoqdaki, bu tashqi iqtisodiy aloqalarda ustunlikka olib kelmoqda.

Germaniya iqtisodiyoti ko‘p ukkladli bo‘lib, Germaniyadagi “sotsial bozor xo‘jaligi” sog‘lom raqobat, tadbirkorlik erkinliklariva xo‘jalik faoliyati kafolatiga asoslanadi. Bu tamoil asosiy qonunda (GFR Konstitusiyasi) belgilab qoyilgan. Raqobatni qullab- quvvatlash antimanapol qonunchilik, kichik va o‘rta tadbirkorlikni (kichik beznes) qo‘llab quvvatlash orqali amalga oshiriladi.

Kichik biznes (10 kishidan 500 kishigacha) barcha firmalarining 99,8% ini tashkil qiladi. Bunga 2/3 qismi shogirdlar o‘rni to‘g‘ri keladi. Kichik biznesga YAIM 46%, sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning 50%, yalpi investitsiyaning 44%, tovarlar eksportining 40% to‘g‘ri keladi. xizmat ko‘rsatish sohalarida 35% kichik firmalar faoliyat ko‘rsatadi. Davlat tomonidan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning (hatto innovatsion sohalarda ham) butun boshli tizimi yaratilgan.

Ayni vaqtda GFR iqtisodiyoti uchun yirik ishlab chiqarish va sertarmoq konsernlarning uyg‘unlashuvi xosdir. Yirik firma va konsernlar ko‘p bo‘lmasa-da, Germaniya iqtisodiyoti siymosi sifatida xo‘jalikning barqarorligi, ishonchliligi va samaradorligi kafolatidir. Germaniya iqtisodiyotida ishlab chiqarish konsentariyasi va kapital markazlashuvining yuqori darajasi xos bo‘lib, zamonaviy tarmoqlar, bank, moliya-kredit institutlari, sug‘urta kompaniyalari ichki bozorda yetakchi o‘rin tutishidan tashqari xalqaro ko‘lamda ham mustahkam pozitsiyaga ega.

Hozirgi Germaniya dunyoda eng rivojlangan mamlakatlardan biridir. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha faqat AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyinda turadi. Tashqi savdo aylanmasi hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda turadi.

Germaniya sanoati Yevropa va jahon bozorida yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvida muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi Germaniya xo'jaligining tarmoq va hududiy tarkibi rivojlanishida GFR va GDR davlatlarining qirq yillik bo'linishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakat birlashuvidan keyin Sharqiy yerlarda xo'jalikni rivojlantirish muammolari sezilarli kuchaydi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish pasayishi ro'y berdi. Shuningdek ijtimoiy muammolar vujudga keldi. (shu jumladan ishsizlik). GFRda xo'jalikni rivojlantirish darajasiga ko'ra hududiy nomutanosibliklar kuchaydi. Shunday qilib 1994 yilda Germaniya aholisi 20 foiz aholisi yashovchi sharqiy yerlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bor yo'g'i 4 foizni tashkil etdi.

Sanoati. Mamlakat sanoat tarmoqlar tarkibida qayta ishlash sanoati hissasi juda yuqori. (Qazib chiqarish sanoati xissasi g'arbiy yerlarda 2 foiz, sharqiy yerlarda esa 9 foizni tashkil etadi). Germaniyada bir qancha qazib chiqarish (temir ruda, mis rudasi, uran rudasi) tarmoqlari o'z faoliyatini amalda to'xtatgan. So'nggi yillarda import asosida olib kelinadigan arzon xom-ashyo istemolning o'sish hisobiga ko'mir sanoatida toshko'mir qazib chiqarish keskin qisqarmoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatda fan-talab tarmoqlar hissasi oshib bormoqda. Germaniya stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari avtomobillar, organik ximiya mahsulotlari eksport qilish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. GFR dagi barcha yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporasiyalar hisoblanadi. (Daimler-Benz, Volkswagen, Siemens, Hoechst, Bayer).

Energetika sanoati o'zining yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojining yarmidan ortig'ini import hisobiga ta'minlaydi. Germaniya yoqilg'i-energetika balansida neft va tabiiy gaz muhim rol o'ynaydi. Ko'mir hissasi esa 30 foizni tashkil etadi. Neft mamlakatga neft quvurlari va tankerlar orqali Shimoliy dengiz, Rossiyadan, Afrika mamlakatlari (Nigeriya, Liviya) va Fors qo'ltig'i mamlakatlaridan tashib keltiriladi.

Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakat bo'ylab bir tekis joylashgan bo'lib, uning Gamburg, Kyoln, Karlsrue, Ingolshtadt, Shvedt kabi yirik markazlari ishlab turibdi.

Gaz sanoati Niderlandiyadan, Shimoliy dengizdagi Norvegiyaga qarashli konlardan, Rossiyadan va mahalliy konlardan qazib olinadigan tabiiy gazlarga tayanadi. 1950 yillarga kelib mamlakatda toshko'mir qazib chiqarish 152 mln tonnaga yetkazilgan edi. O'sha davrlarda toshko'mir sanoati energetik sanoatining asosini tashkil etgan edi. So'nggi yillarda ushbu sanoatda toshko'mir qazib olish qisqarib bormoqda. Natijada Germaniya eng ko'p ko'mirni eksport qiluvchi mamlakatlardan eng ko'p ko'mirni import qiluvchi mamlakatga aylandi. (Jahon bozorida ko'mir Germaniya ko'miriga nisbatan 3-4 marta arzon). 1994 yilda mamlakatda ko'mir qazib chiqarish 57,6 mln tonnagacha kamaydi. Germaniyaga ko'mirning katta qismi AQShdan, Polsha, JAR va hatto Avstraliyadan tashib keltiriladi. G'arbiy Germaniya birlashuviga qadar qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada birinchi, Sharqiy Germaniyada esa dunyoda oldingi o'rinlarni egallagan. (Hozirgi vaqtda 250 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib chiqarilmoqda).

GFRda asosan elektroenergiya issiqlik elektrstansiyalarda ishlab chiqariladi. Mamlakatda issiqlik elektrstansiyalar Rur va Saar havzalari va port shaharlarida ko'mirga tayanib, ishlamoqda shimolda esa tabiiy gazga, neftni qayta ishlash markazlarida esa mazutga tayanib ishlaydi. AESlarda esa elektroenergiyaning 30 foizi ishlab chiqarilmoqda. GESlar asosan mamlakatning janubida qurilgan. (tog' daryolarida).

Qora metallurgiya sanoati-Germaniyaning eng muhim ixtisoslashgan tarmog'idir.

Mamlakat cho'yan, po'lat quyish va prokat ishlab chiqarish bo'yicha G'arbiy Yevropada yetakchi o'rinda va dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Quyiladigan po'latning deyarli hammasi kislorod-konvertor va elektrpo'lat quyish usuli orqali ishlab chiqariladi. Asosiy metallurgiya zavodlari Rur va Quyi Reynda joylashgan.

Saar rayoni, Quyi Saksoniya va Bremenda to'liq siklda ishlovchi zavodlar ishlab turibdi.

Rangli metallurgiya- asosan import va ikkilamchi xomashyo asosida ishlaydi. Rangli metallurgiya korxonalarining joylashuvida energiya resurslari bilan yetarli ta'minlanganligi va xom-ashyoni tashib keltirishning qulayligi bosh omil hisoblanadi.

Germaniya alyuminiy quyish bo'yicha G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyinda turadi. Asosiy korxonalar Shimoliy Reyn-Vestfaliy. (Essen, Norf, Fyorde), shuningdek Gamburg va Bavariya (Tyoging) yerlari hududlarda joylashgan.

Mashinasozligi va metallni qayta ishlash sanoati- Germaniyadagi eng rivojlangan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat mashinasozlik sanoatiga jami sanoat mahsulotlari va eksportning yarmiga yaqini to'g'ri keladi. Shu bilan birga jami mashinasozlik mahsuloti eksport hajmida 40 foizni tashkil etadi. Mamlakatda mashinasozlikning Myunxen, Nyurnberg, Erlangen bilan Mangeym, Berlin, Leypsig, Gamburg kabi yirik markazlari shakllangan. Mamlakat federal yerlar orasida Baden-Vyurtemberg va Shimoliy Reyn-Vestfaliyada umumiy mashinasozlik ishlab chiqarishi rivojlangan. Elektrotexnika tarmoqlarining rivojlanishida Bavariya yetakchilik qiladi. Shuningdek mamlakatda mashinasozlikning Myunxen (Siemens konserni), Berlin, Shtutgard, Kyoln, Gamburg, Frankfurt-Mayn kabi yirik markazlari ishlab turibdi. Germaniya avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Yaponiya va AQShdan keyinda turadi. Avtomobillarni «Folksvagen», «Mersedes Bens», «BMV», «Ford Verke», «Opel» firmalari ishlab chiqaradi. Mamlakatda mashinasozlikning Voflsburg, Shtutgart, Kyoln, Ryusselsxaym, Myunxen kabi yirik markazlari shakllangan.

Mamlakatda dengiz kemasozligining asosiy markazlari Kil, Gamburg, Bremen, Emden, Rostok daryo kemasozligining markazi Duysburg hisoblanadi.

Germaniyada optika-mexanika sanoati korxonalari Boden-Vyurtemberg va Tyuringiya yerlarida joylashgan. Aerokosmik sanoatning yirik markazlari- Myunxen, Augsburg, Gamburg va Bremenda joylashgan.

Ximiya sanoati. Shimoliy Reyn-Vestfaliya yeri Germaniya ximiya sanoatining bosh rayoni hisoblanadi. (jami ximiya sanoati mahsulotining 40 foizi to'g'ri keladi). Mamlakatda ximiya sanoatining Leverkusen (Vauer konserni), Kyoln, Dormagen, Frankfurt-Mayn (Hoechst konserni), Lyudvigxafen (BASF) kabi yirik markazlari shakllangan. Sharqiy yerlarda esa (Germaniya birlashuvidan keyin) ximiya sanoati chuqur iqtisodiy krizis holatiga tushib qoldi.

Qishloq xo'jaligi. XX asrning 50-yillaridan GFR qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi industrial asoslarga ko'chdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi industrial asoslarga ko'chdi. Qishloq xo'jaligida ITI yutuqlari keng ko'lamda, ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi, intensiv usullar negizida agrosanoat majmuasi, 70-yillardan boshlab agrobiznes jadal rivojlana boshladi. Qishloq xo'jaligining YAIMdagi hisssasi juda oz (taxminan 1,1%), ammo aholi harajatlari tarkibida muayyan o'ringa ega, aholi joy boshiga o'rtacha oziq-ovqat ta'minoti yuqoridir (sut, go'sht, tuxum va boshqa). Qishloq xo'jaligida band aholi sonining keskin qisqarishiga qaramay (1950 yil jami band aholining 20% i qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 3,2% i band bo'ldi), ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini 90% ta'minlashga erishildi.

Qishloq xo'jaligini intensiv industrilashtirish XX asrning 50 - 60 – yillarida amalga oshirildi va iqtisodiyotning kapital talab tarmog'iga aylandi. Mexanizatsiyalashuv darajasi jihatidan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida birinchi o'rinda turadi. 80-yillardan boshlab intensiv omillar ta'sirining yanada kuchayishi va iqtisodiyotda texnik resurslarni tejash yo'nalishiga o'tildi:

- traktor va don o'rish kombaynlari quvvatining ortishi tufayli fermerlar tomonidan bunday texnikalarni sotib olish kamaydi;
- universal agregatlardan foydalanish ko'paydi. Qishloq xo'jaligi mashinalari mikroprotsesslar bilan jihozlandi;
- mineral o'g'itlar, o'sish stimulyatorlari, o'simliklarni himoya qilish vositalaridan foydalanishning ortishi tabiiy sharoitlarga bog'liq bo'lmagan holda yuqori hosil olish imkonini beradi. Fermer xo'jaliklarida tobora

yuqori samarali vositalardan foydalanish asosida asosida 1 ga yerga “yukni” ozaytirish hisobiga tabiat va insonga kamroq zarar yetkazishga harakat qilish jarayoni boshlandi;

- chorvachilik va ziroatchilik tarmoqlarida o‘simliklarni himoya qilishda biologik usullardan-organik o‘g‘itlardan va gen muhandisligi yutuqlaridan foydalanish kuchaydi;
- bu jarayonlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yuqori samarali bo‘lishidan tashqari, atrof-muhitga texnogen ta’sirini ham kamaytirdi;
- GFR qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi, avvalo:
- fermer xo‘jaliklar umumiy sonining (mayda xo‘jaliklar hisobiga) qisqarishi;
- o‘rtacha fermer xo‘jaliklarining yiriklashuvi;
- fermer xo‘jaliklarini tashkil qilishda zarur kapital minimal hajmining ortishi bilan harakterlanadi.

Unga qaramay, fermer xo‘jaliklarining daromad olish darajasi Buyuk Britaniya, Benilyuks mamlakatlari va Fransiyadan orqada. Qishloq xo‘jaligidagi konsentratsiya va vertikal integratsiya negizida ishlab chiqarish va noagrar sohalarning qo‘shilishi nisbatida agrosanoat majmuasi-qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish vositalari ta’minoti, transport, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, savdo, umumiy ovqatlanish, kredit institutlari, sug‘urta va qishloq xo‘jaligini tartiblash organlarining bir doirada uyg‘unlashuvi asosida rivojlanmoqda.

GFR qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida chorvachilik yetakchi soha (60% qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qiymati to‘g‘ri keladi) bo‘lib, dehqonchilik, chorvachilik manfaatlari (yem-hashak yetishtirish) asosida rivojlangan. Chorvachilikda yirik shoxli hayvonlar va cho‘chqachilik ustuvor tarmoq. Chorvachilik deyarli mamlakatning barcha federal yerlarida rivojlangan bo‘lsada, hududlar bo‘yicha bir xil emas. Sut chorvachiligi Reyn va Nekkara vodiylarida,

Shimoli-G'arb, Bavariyaning tog'li yaylovlarida, cho'chqachilik shimoliy rayonlar, Quyi Saksoniya janubida, qo'ychilik janubiy tog'li rayonlarda rivojlangan.

Ekin maydonlari GFR hududining 35% ini tashkil qiladi. Donli ekinlar g'arbiy yerlarda haydaladigan yerlarning $\frac{3}{5}$ qismidan ko'prog'ini, sharqiy yerlarda esa $\frac{1}{2}$ qismini tashkil qiladi. Asosan donli ekinlardan bug'doy, roj, arpa, tariq yetishtiriladi. Texnika ekinlaridan qand-lavlagi, yem-xashak ekinlari, ildiz mevalar ko'p ekiladi. Ayrim arpa sortlari pivo sanoati uchun maxsus ekiladi. Bavariyada xmel yetishtiriladi (pivo uchun). Ko'plab kartoshka va sabzavot yetishtiriladi. Reyn vodiysi va uning irmoqlarida uzumchilik-bog'dorchilik va tamakichilik rivojlangan. Chorvachilik uchun yem (AQShdan) import qilinadi. Oziq-ovqat uchun don bilan o'zini to'la ta'minlaydi.

GFR hududining $\frac{1}{3}$ qismi o'rmonlar bilan qoplangan (10,7 mln ga). Har yili 30-40 mln m³ yog'och tayyorlanadi va ichki ehtiyojlarning $\frac{2}{3}$ qismini qoplaydi. Ayni vaqtda yog'och eksport qiluvchi mamlakat hamdir. Shimoliy va Boltiq dengizlari, Grenlandiya oroli atrofida baliq ovlanadi.

Germaniya qishloq xo'jaligida o'z hududining 50 foizidan foydalanadi. Biroq ushbu tarmoqning mamlakat yalpi ichki mahsulotlar hissasida faqat 1 foizni tashkil etadi. (mahsulot qiymati bo'yicha)mamlakat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami mahsulotning 60 foizini chorvachilik sohasi beradi. Mamlakat chorvachiligining yetakchi sohalari yirik qoramolchilik va cho'chqachilik sohalari hisoblanadi.

Germaniyada ekin maydonlar mamlakat maydonining 35 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlariga nisbatan yem-xashak ekin maydonlar katta maydonlarni egallaydi. Shunga qaramay mamlakatda yem-xashak ekinlar katta miqdorda chetdan import qilinadi.

Donli ekinlar mamlakat g'arbiy yerlarida haydaladigan yerlarning $\frac{3}{5}$ qismini, sharqda esa $\frac{1}{2}$ qismini egallaydi.

Qishloq xo'jaligida bug'doy asosiy oziq-ovqat ekini hisoblanadi, lekin Germaniya javdar, suli, arpa yetishtirishda Yevropada alohida ajralib turadi.

Pivo ishlab chiqarish uchun arpaning bir qancha sortlari yetishtiriladi. Germaniya o'zini donli oziq-ovqat ekinlari bilan to'la ta'minlaydi.

Bovariyada katta maydonlarda xmel yetishtiriladi. Bundan tashqari mamlakatda kartoshkachilik va qand lavlagi yetishtirish muhim o'rin tutadi. Reyn daryosi va uning irmoqlari bo'ylab (mamlakatning g'arbiy rayonlarida) uzumchilik va bog'dorchilik yo'lga qo'yilgan.

Transport tarmoqlari. Germaniya transporti yo'llarining zichligi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatning asosiy transport turini temir yo'llar tashkil etadi. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 44 ming km atrofida bo'lib, shundan jami temir yo'llarning $\frac{2}{5}$ qismi elektrlashtirilgan.

Jami tashiladigan yuk aylanmasida avtomobil transportining hissasi 60 foizni, temir yo'l transportiga 20 foiz, daryo transportiga 15 foiz to'g'ri keladi. Yo'lovchi tashish aylanmasida esa avtomobil transportining hissasi yanada yuqori ya'ni 90 foizni tashkil etadi.

Germaniyada ichki suv yo'llarining uzunligi 7 ming km atrofida. Mamlakatning Reyn daryosidagi xalqaro magistral suv yo'lida ko'plab yirik portlar joylashgan bo'lib, unda yillik yuk aylanmasi 50 mln tonna bo'lgan dunyodagi eng yirik daryo porti-Duysburg joylashgan.

Germaniya kemalarda konteynerlarda yuk tashish tonnaji bo'yicha dunyoda AQSH, Panama va Tayvandan so'ng 4-chi o'rinda turadi. Germaniya dengiz portlari yuk aylanmasi hajmiga ko'ra Yevropa mamlakatlarining yirik portlaridan keyinda turadi. Mamlakatda Gamburg, Vilgelmsxafen, shuningdek Bremen, Emden, Rostok kabi yirik portlar ishlab turibdi.

Havo transporti dengiz transporti kabi mamlakat tashqi aloqalarida muhim rol o'ynaydi. Barcha savdo yarmarka markazlari mamlakat aeroportlarida joylashgan.

Germaniyada jami 16 ta xalqaro aeraportlar bo'lib, shu bilan birgalikda Frankfurt aeroporti yuk aylanmasi bo'yicha Yevropada birinchi, yo'lovchi tashish hajmi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi.

Ichki tafovutlari va iqtisodiy rayonlari. Germaniyaning 40 bo'lingan holda ikki ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy yo'nalishda rivojlanishi oqibatida, sobiq GDR ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy-xo'jalik tarkibi, aholining turmush darajasi jihatidan GFR dan bir necha barobar orqada qolgan edi. Bugungi kunda Germaniyani iqtisodiy-geografik holati, tarixiy-iqtisodiy va bozor munosabatlarining rivojlanish xususiyatlari hamda hududlarning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra ikkita yirik makroiqtisodiy rayonga – G'arbiy va Sharqiy Germaniyaga bo'lish mumkin.

G'arbiy Germaniya makroiqtisodiy rayoni tarkibida Baden-Vyurtemberg yeri, Bavariya Respublikasi, Brem va Gamburg shaharlari, Gessen, Quyi Saksoniya, shimoliy Reyn-Vestfaliya, Reynland-Pfals, Saar, Saksoniya-Angalt, Shlezvig-Golshteyn yerlari kiradi. Hududi 248 ming km² bo'lib, 65,7 mln aholi yashaydi. Iqtisodiy jihatdan g'oyat rivojlangan va urbanizatsiyalashgan mintaqa. Sanoatda metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, elektronika sohalari yetakchi rol o'ynaydi. G'arbiy makroiqtisodiy rayon bugungi Germaniyaning asosiy industrial yadrosi sifatida yuksak malakali ishchilar to'planganligi hamda urbanizatsiyalashganligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish konsentratsiyasi va kapital markazlashuvi jihatdan G'arbiy Yevropadagina emas, balki dunyo mintaqalari o'rtasida ham yetakchi mavqega ega.

Makroiqtisodiy rayonda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektrotexnika va elektronika, kimyo, neft-kimyo, yengil (to'qimachilik va tikuvchilik) va oziq-ovqat sanoati, intensiv sut-go'sht chorvachiligi va dehqonchilik rivojlangan.

Sharqiy Germaniya makroiqtisodiy rayoni tarkibida Brandenburg, Bremen, Maklenburg-old Pomeraniya, Saksoniya Respublikasi va Tyurengiya Respublikasi kiradi. Hududi 109,0 ming km², aholisi 16,5 mln kishi (sobiq GDR hududi). Iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan G'arbiy Germaniya yerlaridan bir necha barobar orqada qolgan bo'lib, 1979 yil mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari g'arb andozalariga nisbatan 46%ni, 1989 yil esa 30-40% ni tashkil qilgan. Aholining turmush darajasi va malakaviy mahoratni nisbatan past, iqtisodiy tarkibi

raqobatbardosh emas. Sharqiy Germaniya bilan G'arbiy Germaniya o'rtasida 1990 yil 1 iyulda ijtimoiy-iqtisodiy va valyuta ittifoqi hamda 30 noyabrda davlatlarni birlashtirish to'g'risida shartnoma imzolangandan so'ng GFR Konstitutsiyasi va sotsial bozor xo'jaligi tamoyillarini Sharqiy Germaniya hududiga tadbiq qilish boshlandi. Natijada, GFRda samarali faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy va iqtisodiy sistema, institusional tarkib, huquqiy asos va qonuniy normalar Sharqiy Germaniyada ham amal qila boshladi. Dunyodagi barqaror valyutalardan biri nemis markasi, bank va moliya tizimi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, xususiylashtirishni amalga oshirish, makroiqtisodiy-moliyaviy barqarorlashuv oqibatida 1994 yildan boshlab xo'jalikda ijobiy tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Keng ko'lamdagi moliyaviy (1991-1998 yillarda Sharqiy Germaniya hududiga 1,4 trln nemis markasi kiritilda) va boshqa iqtisodiy yordamga qaramay, iqtisodiy, ayniqsa sotsial muammolar yuzaga keldi. Bu ko'plab korxonalarning g'arbiy ishlab chiqaruvchilar raqobatiga dosh bera olmasligi va ishsizlikning o'sishi bilan bog'liq bo'ldi. Sharqiy Germaniya iqtisodiyotidagi transformatsiya jarayonlari ko'plab qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganligiga qaramay, rivojlanib bormoqda.

GFRni tarixiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, ichki bozor va xalqaro xo'jalik tizimiga tortilganlik bo'yicha 5 ta: Shimoliy, G'arbiy, Janubi-G'arbiy, Sharqiy va Janubiy iqtisodiy rayonlarga ajratish mumkin.

Shimoliy iqtisodiy rayon tarkibida Meklenburg – Old Pomeraniya, Shlezvig-Golshteyn, Quyi Saksoniya yerlari, Gamburg va Bremen yer-shaharlari kiradi. Iqtisodiy rayon dengizbo'yi holati va tashqi savdo aloqalariga xizmat qilish bilan ajralib turadi. Sertarmoq sanoat ishlab chiqarishiga, ega, ayniqsa, kemasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, neft-kimyo, metallurgiya, oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Iqtisodiy rayonda Gamburg (2,0 mln dan ortiq aholi) yirik sanoat va madaniyat markazi, xalqaro port, temir yo'l, avtomobil va havo yo'llari tugunidir. Shuningdek, Bremen, Emden, Rostok, Shverin, Kil, Lyubek, Volfzburg, Gannover, Braunshveyg, Zalsigitter shaharlari metallurgiya, mashinasozlik (avtomobilsozlik, samolyotsozlik, kemasozlik), neftni qayta ishlash, kimyo va neft-kimyo, oziq-

ovqat sanoati rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Sut chorvachiligi va choʻchqachilik yetakchi tarmoq, dehqonchilikda roj, tariq, kartoshka, bugʻdoy, qand – lavlagi va boshqa qishloq xoʻjaligi ekinlari yetishtiriladi.

Gʻarbiy (Shimoliy Reyn-Vestfaliya yeri) rayon. Iqtisodiy rayon GFRning iqtisodiy rivojlangan indusrial hududidir. Rur industrial oʻlkasi mamlakatning iqtisodiy rivojlangan yadrosi boʻlib, dunyo mamlakatlarining birortasida bunday yuqori darajada sanoat rivojlangan hudud yoʻq. Oʻnlab shahar aglomeratsiyalari bir-biri bilan qoʻshilib ketgan, urbanizatsiyalashish koʻrsatkichi gʻoyat yuqoridir (95% dan ortiq). Har bir km² hududga 6 mingdan ortiq aholi toʻgʻri keladi. Yirik shaharlari: Dessen (ogʻir industriya, mashinasozlik, kimyo), Duysburg (koʻmir qazib chiqarish, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va elektronika, kimyo sanoati, transport tuguni va port-shahar), Dyusseldorf (mashinasozlik, metallurgiya, elektrotexnika va elektronika, yengil va oziq-ovqat tarmoqlari), Vupertal (mashinasozlik, kimyo, neftni qayta ishlash va neft-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati) Bonn shahri (40 yildan ortiq GFR poytaxti boʻlgan; AQShning Vashington shahriga oʻxshash maxsus poytaxt sifatida barpo qilingan).

Janubiy–Gʻarbiy iqtisodiy rayon tarkibida Baden-Vyurtemberg, Reyland-Pfals, Gessen va Saar yerlari kiradi. Tabiiy sharoiti sanoat va qishloq xoʻjaligini rivojlantirish uchun juda qulay. XX asrning 50-yillaridan boshlab sanoatning yangi va oʻta yangi tarmoqlari; mashinasozlik (avtomobilsozlik), elektrotexnika va elektronika, kimyo va neftni qayta ishlash anʼanaviy tarmoqlar; toshkoʻmir qazib chiqarish, qora metallurgiya, aniq mexanika va optika, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan. Frankfurt, Shtutgart, Mangeym, Karlsrue shaharlari yirik sanoat markazlaridir.

Qishloq xoʻjaligida uzumchilik, bogʻdorchilik, sabzavotchilik, tamakichilik rivojlangan boʻlib, mamlakatning boshqa sanoat rayonlarini ushbu mahsulotlar bilan taʼminlaydi.

Sharqiy iqtisodiy rayon tarkibida Berlin, Brandenburg, Saksoniya Respublikasi va Tyurgeniya Respublikasi yerlari kiradi. Iqtisodiy rayon ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga koʻra boshqa iqtisodiy rayonlardan ancha orqada.

Shuning uchun 90-yillardan boshlab sharqiy iqtisodiy rayon xo'jaligini rivojlantirish yuzasidan federal hukumat tomonidan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy dasturlar, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarish tizimlari va xizmatlarni, yuqori ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy rayondagi Berlin-mamlakat poytaxti, yirik sanoat, madaniyat, moliya markazi va transport tuguni. Mashinasozlik, metallni qayta ishlash, elektrotexnika va elektronika, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanib bormoqda. Iqtisodiy rayon xo'jalik tarkibi jiddiy o'zgarmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlari va xizmatlar yuzasiga kelmoqda. Potsdam, Brandenburg, Shvedt, Magdeburg, Galle, Drezden, Erfurt, Gera, Yena, Veymar va boshqa shaharlar nafaqat sanoat markazlari, balki nemis adabiyoti, san'ati va yodgorliklari shaharlari hamdir. Qishloq xo'jaligida donli ekinlar (bug'doy), qand – lavlagi, kartoshka-sabzavot-bog'dorchilik, sut-go'sht chorvachiligi va cho'chqachilik yetakchi o'rin tutadi.

Janubiy iqtisodiy rayon tarkibiga Bavariya Respublikasi kiradi. Industrial ishlab chiqarish tarkibida umumiy va transport mashinasozligi (avtomobillar), 50-yillardan boshlab elektrotexnika va elektronika, samolyotsozlik va motorsozlik, harbiy sanoat, atom sanoati, kosmik-raketa sanoati, harbiy kimyo, neftni qayta ishlash, yengil va oziq-ovqat (pivo), o'yinchoqlar, forfor-fayans va boshqa o'ta zamonaviy sanoat tarmoqlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Yirik markazlar-Myunxen, Nyurberg va Augsburgda asosiy sanoat korxonalari to'plangan.

Sut chorvachiligi, cho'chqachilik, tekislik va daryo vodiylarida bug'doy, arpa, kartoshka, qand-lavlagi, sabzavotchilik, tamakichilik, xmel yetishtirish va uzumchilik rivojlangan.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Germaniya tashqi savdo umumiy hajmi bo'yicha dunyoda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. (1994) yilda 767,7 mlrd dollarni tashkil etdi). GFR tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlangan mamlakatlar bilan birinchi navbatda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan olib boradi. Ularga

tashqi savdo aylanmasining 50 foizi va chetga chiqariladigan kapitalning asosiy qismi to'g'ri keladi. Yevropaning ko'pgina mamlakatlari uchun Germaniya bosh savdo sherik hisoblanadi. Elektronika sanoatida «Simens» avtomobilsozligida esa Daymle-Bens kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

GFRda tashqi iqtisodiy aloqalarga alohida ahamiyat qaratiladi. Asosiy tashqi savdo sheriklari YEI mamlakatlari, AQSH va Yaponiyadir. Shuningdek, nemis firmalari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Lotin Amerikasi, Janubiy Amerika mamlakatlari, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Rossiya, Ukraina, Boliqbo'yi mamlakatlari iqtisodiy hayotida o'z faoliyatini kengaytirmoqda. Tashqi savdo aylanmasining 55%i YEI mamlakatlariga, shuningdek, AQShga 8-9%, Yaponiyaga 3-4%, rivojlanayotgan mamlakatlarga 12% to'g'ri keladi.

Tashqi savdo GFR iqtisodiyotining barqaror rivojlanib borayotgan sohasi, iqtisodiy o'sish stimulyatori sifatida YAIMda hissasi (12%) yuqori bo'lishiga olib keladi. Chunonchi, keyingi yillarda YAIM eksport va importning (xizmatlar bilan) hissasi mos ravishda 26,6 va 24,9%ni (joriy narxlar) tashkil qildi. Germaniya tashqi savdo balansi ijobiy saldogaga egadir.

GFRning tashqi savdo tovar tarkibida tayyor sanoat mahsulotlari hissasi (tovar aylanmasi qiymatining 90%dan ortig'i) yuqori. Germaniya eksportining tovar tarkibi XX asrning 60-yillarida shakllangan bo'lib, hozirga qadar barqaror rivojlanib kelmoqda. Eksportda investitsion sanoat torvarlari, mashina va jihozlar (56%), sanoat xom ashyolari va yarim fabrikalar (22,4% dan ortiq), keng sanoat iste'mol tovarlari, importda tayyor sanoat mahsulotlari (70%) va yarim fabrikatar (10%), xomashyo (5%), ya'ni avtomobillar, ko'tarma transport vositalari, elektrotexnika jihozlari, neft, tabiiy gaz, ko'mir, rangli metallar, propan, mineral xom ashyo, to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak asosiy o'rin tutadi.

GFR yoqilg'i resurslariga bo'lgan ehtiyojining (neftning – 98%, tabiiy gazning – 80%, toshko'mirning – 20% va qo'ng'ir ko'mirning -2%) katta qismini va ayni vaqtda yuqori texnologik tovarlarni import hisobiga qondiradi. Germaniya dunyodagi eng yirik kapital eksport qiluvchi mamlakat. Germaniya kompaniya va firmalari kapital eksport qilish bo'yicha Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish

tashkilotining (IHRT) reytingida uchinchi o‘rinda turadi va sobiq SSSR hududidagi postsotsialistik davlatlar bozorlarini intensiv o‘zlashtirmoqda. Qo‘shma korxonalar va nemis firmalarining “qiz” korxonalari-filiallari barpo etilmoqda. Ayniqsa, Chexiya, Vengriya, Rossiya bilan aloqalar intensiv rivojlanib bormoqda.

Germaniya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yildan boshlandi. 1993 yil Berlin shahrida O‘zbekiston elchixonasi ochildi. 1993 yildan Germaniya va O‘zbekiston o‘rtasida texnik va madaniy sohalar bo‘yicha hamkorlik dasturlari amalga oshirilmoqda. 2006 yil O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida tashqi savdo aylanmasi 324,0 mln AQSH dollarga yetdi.

Germaniya O‘zbekistonda paxta tolasi, mis va undan yasalgan buyumlar, rangli metallar oladi, turli xizmatlardan foydalanadi. O‘z navbatida Germaniya O‘zbekistonga asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (baliq konservalari, qand-shakar, un), kimyo sanoati mahsulotlari, qora metall, transport va aloqa vositalari, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari va boshqalarni) eksport qiladi hamda turli xizmatlar ko‘rsatadi.

Germaniyaning 40 dan ortiq firma va kompaniyalari (“Daymleer Bens”, Simens”, “Lyufganza”, “BASF”, “Salamander”, “Alkatel”, “Tissen” va boshqa) ishtirokida “Landtexnik-Toshkent”, “Chirkom”, “Grasso”, “Tosh-Virt”, “Intermed Ekasan”, “O‘zsalaman”, “O‘z-Vinkler” kabi o‘nlab qo‘shma korxonalar barpo etildi.

Germaniya–O‘zbekiston o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlik yuqori texnologiyalar, oziq-ovqat, yo‘l texnikasi, biotexnika, aloqa, tibbiyot va farmatsevtika, qog‘oz ishlab chiqarish, elektrotexnika va elektronika, ekologik sof ishlab chiqarish kabi sohalarda kengayib bormoqda.

Mamlakat organik ximiya mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rin uchun kuchli raqobat olib bormoqda. Germaniya avtomobillar va kemalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-chi o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda Germaniya mikroelektronika va kompyuterlar, aerokosmik

texnikalar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyinda turadi.


Mamlakat import tarkibida tayyor mahsulotlar hissasi yuqori, biroq xom-ashyo va yoqilg'i hissasi ham ancha yuqori. Hozirgi Germaniya uchun Rossiya neft va tabiiy gaz yetkazib beruvchi asosiy mamlakatdir, Germaniya esa Rossiya uchun mashina va jihozlar, temir yo'l vagonlari, ximikatlar va oziq-ovqat mollari yetkazib beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Germaniyaning qanday foydali qazilmalari bor?
2. Germaniyada ishlab chiqariladigan mashhur avtomobillar markalarini ayting?
3. Siz yashaydigan joy bilan Germaniya joylashgan hududning qanday oxshashligi va farqi bor?
4. Germaniyaga chegaradosh mamlakatlarni nomini ayting?
5. Germaniya bilan O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar qachon boshlandi? (1992 yildan)
6. Berlin shahrida O'zbekiston elchixonasi qachon ochildi? (1993 yil)
7. Germaniya O'zbekistondan nima oladi? (paxta tolasi, mis va undan yasalgan buyumlar, rangli metallar oladi, turli xizmatlardan foydalanadi)
8. Germaniya O'zbekistonni nima bilan ta'minlaydi? (asbob-uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (baliq konservalari, qand-shakar, un), kimyo sanoati mahsulotlari, qora metall, transport va aloqa vositalari, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari va boshqalar)
9. Germaniya bilan O'zbekiston qo'shma korxonalarini ayting? ("Landtexnik-Toshkent", "Chirkom", "Grasso", "Tosh-Virt", "Intermed Ekasan", "O'zsalaman", "O'z-Vinkler" kabi)
10. Germaniyaning eksport bo'yicha dunyoda tutgan o'rining ayting? Mamlakat organik ximiya mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Stanoklar va boshqa ishlab chiqarish jihozlari eksporti bo'yicha dunyoda birinchi o'rin uchun kuchli raqobat olib bormoqda. Germaniya avtomobillar va

kemalar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 3-chi o'rinni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda Germaniya mikroelektronika va kompyuterlar, aerokosmik texnikalar ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyinda turadi.

Klaster usuli Germaniyaning yerlarini yozing.



Darsni yakunlash:

Darsga yakun yasash, baholarni e'lon qilish.

Uyga topshiriq berish.

1. Germaniyaning iqtisodiy xaritasini tahlil qilish va yozuvsiz xaritaga tushirish.
2. Germaniya va O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy hamkorligi xususida referat tayyorlash.

X U L O S A

Geografiya keng qamrovli fan bo'lib, o'quvchilarga bilim berganda tabiat va jamiyat orasidagi aloqadorlik ularning ongiga singdirib boriladi. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish-o'quvchilarni o'zini-o'zi boshqarishga, mavzu to'g'risidagi axborotlarni kengroq uzatish va qabul qilishga, dars mobaynida monitoring olib borishga, o'quvchilarni vatanparvarlik g'oyalari bilan tarbiyalash va yana bir qancha insoniy fazilatlar bilan ta'lim –tarbiya berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, geografiya mashg'ulotlari mamlakatshunoslik ishlarida o'lka haqidagi bilimlarni mustahkamlash bilan shugullanish katta ahamiyatga ega. Geografiya darslarida o'lkashunoslik materiallaridan foydalanish ” ma'lumdan – noma'lumga” va ” yaqindan - uzoqqa” degan didaktik tamoyilga juda mos keladi.

Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, yangi texnologiyalarga aylanib bormoqda. Bugungi kunda yosh avlodni zamon ruhi va talabi hamda ishlab chiqarish ehtiyojlariga to'liq javob beradigan darajada o'qitish va tarbiyalash “Ta'lim to'g'risida” gi qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”ning asosiy talabi hisoblanadi. 2012 yil 16 – 17 fevral kunlari “ Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning o'tkazilishi davlatimiz tomonidan yosh avlodni tarbiyalashga berilayotgan e'tiborning katta ekanligidan dalolatdir.

Zamonaviy geografiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish eng birinchi navbatda o'qituvchining faoliyatiga, nazariy bilim darajasiga, tashkillashtirish qobiliyatiga va pedagogik mahoratiga bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishning 1-bobida geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga etibor qaratilib, innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida tushunchalar berildi, geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni ilmiy asoslari o'rganildi, geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish asoslanildi.

2- bobda Yevropa mamlakatlarini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish

9- sinf geografiya ta'limi dasturi, Yevropa mamlakatlariga umumiy geografik tavsif, "Germaniya" mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishga doir mavzular ochib berilgan. "Yevropa mamlakatlarining transporti" va "GFR" mavzularining ta'lim texnologiyari ishlab chiqilgan. Mavzularni o'rganishda O'zbekiston bilan qiyosiy taqqoslangan holda o'rganishga e'tibor berilgan. Germaniya va O'zbekistonning hamkorligi xususida, qo'shma korxonalari, eksport va import tovar aylanmasi, O'zbekistonning transportining rivoji haqida ham fikr yuritilgan.

Geografiya darslarida innovatsion ta'limning o'rni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish asosida tizimli tahlil qilingan holda bitiruv malakaviy ishning oldiga qo'ygan maqsadlari vazifalarini bajargan holda natijaga erishilgan.

Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida yangi ta'lim texnologiyalari asosida foydalanishni amalga oshirish maqsadida o'qituvchi o'z oldiga quyidagi rejalarni vazifa qilib qo'yadi:

- Geografiya darslarida innovatsion ta'limning o'rni;
- Geografiya darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- Kadrlarni tayyorlashda yangi ta'lim texnologiyalarning o'rnini o'rganish;
- Geografiya darslarida mahalliy materiallardan foydalanib taqqoslash asosida mamlakatlarni ta'lim texnologiyalari asosida o'rganishni amalga oshirish;
- O'quvchilarni vatanparvarlik, barkamollik ruhida tarbiyalashda mamlakatshunoslik materiallaridan foydalanishni amalga oshirish;
- Har bir mavzuni interaktiv usulda olib borishga erishish;
- Mamlakatga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga o'z hissasini qo'shish;
- Geografiya ta'limida o'qituvchi o'quvchilarni faollashtiradigan o'zi va o'rganish uchun qulay bo'lgan usul va uslublarni, o'qitish shakllarini vaziyatlarini izlash;
- Zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib o'quv jarayoni samaradorligini oshirish.

Yuqoridagilarni amalga oshirilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib o'quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1	Karimov I.A.	"Yoshlarimiz xalqimizning ishonchi va tayanchi" Toshent "Ma'naviyat" 2006. 80-bet
2	Karimov I.A.	"Yuksak ma'naviya-yengilmas kuch". Toshkent "Ma'naviyat"-2008 62-bet.
3	Karimov I.A.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "O'zbekiston Konstitusiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevor" nomli ma'ruzasi// Xalq so'zi 2010 yil 30 yanvar № 21.
4	Karimov I.A.	"Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur tuzish to'g'risida" ("Ma'rifat" gazetasi. 1997 yil 15 mart)
5	Karimov I.A.	. " Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2012 – yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga va 2013 –yilga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasi. Ma'rifar gazetasi 2013 yil, 19-yanvar № 6.
6	Abdurahmonov M., Abdurahmonov B.	Tabiiy geografiya: qiziqarli dars shakllari (uslubiy qo'llanma) "Namangan" nashriyoti 2001
7	Abdurahimov S.M.	Maktab geografiya ta'limida ekskursiyaning ahamiyati "O'zbekiston geografiyasi: tabiati, aholisi, xo'jaligi"(Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari) Toshkent 26-27 mart 2013 y 326-329 betlar
8	Атлас	"Экономическая и социальная география мира" М. 2006 "Драфа"
9	Атлас	Экономическая и социальная география мира М. 2005 "Аст-Пресс школа"
10	Атлас мира	Страни мира в картах и цифрах. М. 2000 г. "Аст-Пресс школа"
11	Jumayeva R.	Hindiston: iqtisodiy geografik tavsifi, hududi, geografik o'rni, resurslari "Maktabda geografiya" jurnal 2013 № 1 9-12 betlar
12	Jahon mamlakatlari.	Spravochnik T.O'zbekiston.2010 y.

13	Ibragimova D.	“ 5x5” bellashuvi “ Maktabda geografiya ”jurnal 2013 № 1 13-16 betlar
14	Nazarov H., Yo’ldosheva D., Meliboyeva F.	Maktabda geografiya ta’limini amalga oshirishda interaktiv usullardan foydalanish
15	Йулдашев Ж. Г, Усмонов С.А.	Педагогик технология асослари. Укув кулланма Т. «Укитувчи» 2004 й.
16	Og’abekova O.A	Geografiya talimida ekskursiyaning ahamiyati haqida ” O’zbekiston geografiyasi: tabiati, aholisi, xo’jaligi”(Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari) Toshkent 26-27 mart 2013 y 339-340 betlar
17	Mavjutov D.	«Geografik topishmoqlar». Toshkent «Mehnat» 2001.
18	Majidova N., Alimova A.	Innovatsiya-ta’lim tizimida. “Zamonaviy geografiyaning regional muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 18-19 may 2010.
19	Muqimova X.	Zamonaviy geografiya darsi-standart talabdagi meyardan ortiq ko’rsatkichga erishish omili. “Zamonaviy geografiyaning regional muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 18-19 may Qarshi 2010.
20	Musayev P., Qurbonniyozov R.	"Geografik o'yinlar" Toshkent. O'qituvchi-1979.
21	Мухаммедов Г.И.	«Замонавий педагогик технологияларнинг илмий- назарий асослари» укув кулланма Жиззах 2004 й..
22	Толипов У., Усмонбоева М.У.	«Педагогик технологияларнинг тадқиқий асослари». Укув кулланма.Т фан нашриёти 2006 й.
23	Uzluksiz ta’lim.	Ilmiy-uslubiy jurnal. 2008. №2
24	Usmanova R.	Geografiya talimi samaradorligini oshirish masalalari” O’zbekiston geografiyasi: tabiati, aholisi, xo’jaligi”(Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallari) Toshkent 26-27 mart 2013 y 313-315 betlar
25	Xoldorova G., Sattorov K., Rasulov N.	Geografiya ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning istiqbollari ” O’zbekiston geografiyasi: tabiati, aholisi, xo’jaligi”(Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning respublika ilmiy amaliy konferensiyasi

26	Safarov L.S.	materiallari) Toshkent 26-27 mart 2013 y 103-105 betlar Zamonaviy axborot texnologiyalari barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili. “Zamonaviy geografiyaning regional muammolari”. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 18-19 may Qarshi 2010.
	www.ziyo.net	O‘zbekiston yoshlari uchun internetdan maxsus tarimoq
	www.ilm.o'z.	Mamlakat ta’lim tizimidagi ilmiy yangilik, ilmiy ishlar, tadqiqot ishlari ifodalangan
	www.bilimdon.uz.	Turli mavzular yo‘nalishlar sohalar ma’lumotlari keltirilgan veb sayd
	www.gow.uz.	Respublika oliy o‘quv yurtlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan
	www.ziyo.net	O‘zbekiston yoshlari uchun internetdan maxsus tarimoq
	www.stst.uz.	O‘zbekiston davlat statistika bosh boshqarmasining veb sayti.
	www.nature.ru	Dunyo tabiat boyliklari haqida ma’lumotlar ba’zasi

MUNDARIJA

K I R I S H	4-7
I. BOB. I. BOB. Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	
I.1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari haqida tushuncha.....	8-14
I.2. I.2. Geografiyada ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	14-28
I.3. Geografiya ta'limini amalga oshirishda interaktiv usullarda foydalanish	29-32
II.BOB. Yevropa mamlakatlarini ta'lim texnologiyalari asosida o'rganish	
2.1. 9- sinf geografiya ta'limi dasturi	33-40
2.2. Yevropa mamlakatlariga umumiy geografik tavsif	41-53
2.3. Yevropa mamlakatlari "Transport geografiyasi" mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish	54-67
2.4. "Germaniya" mavzusini ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish.....	68-96
XULOSA	97-99
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	100-102
Ilovalar	103-105

1. I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent 1997 y.
2. Atlas “Экономическая и социальная география мира” М. 2006 “Драфа”
3. Atlas “Экономическая и социальная география мира” М. 2005 “Аст-Пресс школа”
4. Atlas “Экономическая и социальная география мира” М. 2000 “Аст-Press”
5. “Atlas mira” Страни мира в картах и цифрах. М. 2000 г. “Аст-Press”
6. B.Ahmedov “Lotin Amerikasi” T. O‘z.dav.nashr.1963 y.
7. Arab mamlakatlari Spr. O‘zb. T.1965 y.
8. V.V.Volskiy va b. “Экономическая география капиталистических и развивающихся стран” 2-chiqar. M.MGU.,1986 y.
9. “География: страны и народы” Россия г.Смоленск: «Русич» 2000 г.
- 10.Internet ma’lumotlari “Osnovniye demograficheskiye pokaziteli po vsem stranam mira v 2007 godu” Razdel I-II/
- 11.Jahon mamlakatlari. Spravochnik T.O‘zbekiston.1990 y. 82 ta avtor
- 12.S.Abdullayev “Mintaqalar va mamlakat iqtisodiyoti” T. “Yangi asr avlodi” 2009 y.
- 13.www.NUR.UZ
- 14.www.ZIYONET.UZ

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov, Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoiti uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent "O'zbekiston" 2009 y.
2. I.A.Karimov, «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» Toshkent «O'zbekiston» 1995 yil.
3. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida», «Xafvsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari». Toshkent. «O'zbekiston» 1997 yil.
4. Soliyev A, Maxammadaliyev R, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. T, O'zMU. 2005 yil.
5. Ergashev A. va boshq. Jaxon mamlakatlari. Toshkent 2006 yil.
6. Mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyoti. Olimjon Abdullayev. Toshkent "Yangi asr avlodi"-2009 yil.
7. Toirov I., Fayzullayev M. Jahon ijtimoiy – iqtisodiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Qarshi-2010 yil.
8. Jahon mamlakatlari.
9. Jahon mamlakatlari. Spravochnik. T.O'zbekiston. 1990 y. 82 ta avtor.
10. "Atlas mira" Strani mira v kartax i sifrax. M. "Ast-Press" 2000 g.
11. Ahmedov B. Lotin Amerikasi. T.O'z dav nashr. 1963.
12. Atlas "Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya mira" M. 2006 "Drafa"
13. Atlas "Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya mira" M. 2005 "Ast-Press shkola"
14. Atlas "Ekonomicheskaya i sosialnaya geografiya mira" M. 2000 "Ast-Press"
15. Arab mamlakatlari. Spr. O'zb. T. 1965.
16. Internet materiallari. www.google.uz.
17. Internet materiallari. www.ziyonet.uz.